

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TALIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
Botanika kafedrası**

5140400-biologiya ta'lim yo'nalishi 4^b-kurs talabasi Xasanova Go'zaloyning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: TISH KASALLIKLARIDA QO`LLANILADIGAN DORIVOR
O`SIMLIKLARNI O`RGANISH USLUBLARI**

Ilmiy raxbar:

b.f.n. R.A. Eshmuratov

Kafedra mudiri:

b.f.n. M.T. Baltabaev

**Kafedra majilisining 2014 - yil 8 may
№10 protokoli bilan himoyaga yuborildi**

Nukus – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB.TISH KASALLIKLARIDA DORIVOR O`SIMLIKLARDAN FOYDALANISH	7
1.1. Maxalliy yallig`lanishga qarshi davolash	13
1.2. Dorivor mahsulotlarni tayyorlash, quritish va saqlash	15
1.3. O`simlik mahsulotlaridan dorivor moddalar tayyorlash	19
II. BOB. STOMATOLOGIK KASALLIKLAR VA ULARDA QO`LLANILADIGAN DORIVOR O`SIMLIKLAR	23
2.1. Stomatologik kasalliklar, turlari va ta`rifi	23
2.2. Tish kasalliklarida qo`llaniladigan dorivor o`simliklar	30
2.3. Tish og`rig`ida xonaki muolajalar va tavsiya etiladigan yig`ma choylar ...	53
III. BOB. OLINGAN MA`LUMOTLARNI O`QUV JARAYONIDA FOYDALANISH.....	57
XULOSALAR	71
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	84

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Inson salomatligi ko'p jihatdan atrof-muhitning tozaligi, qolaversa u iste'mol qiladigan tabiat ne'matlarining beg'ubor bo'lishi hamda shifobaxshligi bilan uzviy bog'liq.

Odamlar, hayvonlar, qolaversa qushlar ham o'z dardiga malham topishga harakat qiladi. Juda ko'p dorivor omillar hayvonot olamidan ilg'ab olingan. Bu haqda qanchadan-qancha tarixiy manbalar, rivoyatlar, hayotiy hodisalar mavjud.

Eski zamonlarda buryat ovchilari jarohatlangan kiyiklar qizil chinnigulni yeyishga talpinganlarini sezib qolganlar. Aniqlanishicha, mazkur o'simlik tarkibida qon to'xtatish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar bor ekan. Suruvda bo'lgan qo'ylar juda achchiq bo'lgan ermonni zo'r ishtaha bilan yeyishayotganining jonli guvohi bo'lishingiz mumkin. Keyinchalik chuqur taddiqotlar shuni ko'rsatadiki, ermon tarkibida gijja haydash xususiyatiga ega bo'lgan omillar bor ekan. Shu tufayli ham qo'ylar vaqti-vaqti bilan ermonni yeb, o'z a'zolarida mavjud bo'lgan gijjalardan ozod bo'lib turadi. Qo'ychibonlar esa qo'ylarning bunday tadbirkorliklarini ko'rib, ermon giyohining bu xosiyatidan xabardor bo'lganlar.

Goho qiziqarli voqeaning guvohi bo'lasiz, ayni bahor pallalarida ekilgan oshrayhon, xojirayhon, sadarayhonlarni qushlar uzib olib ketadi. Ma'lum bo'lishicha, qushlar bola ochish taraddudida bo'lishgach, ularning palaponlari har qanday hasharotlar (kana, burga, qandala va boshqalarga) yem bo'lmasligi uchun bunday vujudi - xushbo'y bo'lgan giyohlarni uyalariga to'shaydi.

Xullas, xalq tabobatida qo'llanuvchi minglarcha amallar hayotdan olingan uzoq kuzatish va tajribalar zaminida vujudga kelgan desak, aslo xato qilmaymiz.

Xozirda qariyb 3000 dorivor moddalar mamlakatimiz ko'lamida qo'llaniladi. Bularning ayrimlari vaqti-vaqti bilan to'ldirilib, yangilanib turadi. Amalda qo'llaniladigan dori-darmonlarning 1/3 qismi dorivor o'simliklarning maxsulotlaridan olinadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, shifoxonalarga yotqizilayotgan bemorlarning 2,5-5 foizi dori-preparatlarining asoratlari yoki zaharlanish bilan bog'liqdir. Kimyoviy, sun'iy ravishda olinadigan dori-darmonlarning ba'zi bir turlari boshqa xil dorilar bilan birgalikda qo'llanganida noxush asorat berish xususiyatiga ham ega. Agar shifobaxsh o'simliklarning mahsulotlari asosida tayyorlanadigan dorivor omillar qo'llanilsa, bunday noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi juda kam uchraydi.

O'simlik mahsulotidan tayyorlanadigan dori-darmonlarni tadbirkorlik bilan ishlatilsa, bir qator xastaliklarning oldini olish ham mumkin. Ular kishi a'zolari uchun mutlaqo bezararligi bilan ajralib turadi. Dorivor o'simlik mahsulotlari uzoq vaqt mobaynida qo'llanilsada, ularning asorati bo'lmaydi. Bu borada tabiat ne'matlari bo'lmish mevalar, rezavorlar, sabzavotlar, oshko'klar o'z o'rnida qo'llaniladigan bo'lsa, nafaqat inson organizmini oziqaviy hayotbaxsh moddalar bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki u bir qator xastaliklar davosi bo'lib ham xizmat qiladi.

Umuman, kimyoviy, sun'iy yo'l bilan olinadigan preparatlar ma'lum bir xastaliklar uchun davolash omili hisoblanadi. Jumladan, hozir davolash amaliyotida keng ko'lamda qo'llanilayotgan antibiotiklar, gormonal preparatlar, shuningdek ruhiy xastaliklarga em bo'ladigan preparatlarning tadbirkorlik bilan qo'llannshidagi hosiyatlarini kamsitib bo'lmaydi, ularga raqobat qila oladigan o'simlik mahsulotlarini sanab ko'rsatish qiyin. Biroq mazkur, preparatlar o'rnini qandaydir darajada bosa oladigan shifobaxsh o'simliklar ham mavjud. Ular faqat xastalikning engil, boshlang'ich ko'rinishida ijobiy natija beradi.

Mazkur ishda O'zbekiston sharoitida yovvoyi xolda o'sadigan hamda madaniy holda yetishtiriladigan, uy-xonada o'stiriladigan serhosiyat o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari haqida bayon qilinadi. Bunda o'simlik mahsulotlarining xalq tabobati amaliyotda hamda zamonaviy tibbiyotda tutgan o'rnini haqida ham ma'lumotlar berilgan. Kitobda bayon etilgan har bir o'simlik

namunasini stomatologiya amaliyotida qaysi usullar bilan qo'llash mumkinligi haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Ishning maqsadi: Tish kasalliklarida qo'llaniladigan ayrim dorivor o'simliklarni o'rganish va olingan ma'lumotlarni o'quv jarayonida foydalanishdan iborat.

Ishning vazifalari:

- tish kasalliklarida qo'llaniladigan dorivor o'simliklarni aniqlash;
- tish kasalliklarida qo'llaniladigan dorivor o'simliklarning qordosh tillarda nomlarini o'rganish;
- dorivor o'simliklardan dorivor maxsulotlar tayyorlash yo'llarini o'rganish;
- dorivor o'simliklarga biomorfologik ta'rif berish;
- olingan ma'lumotlarni o'quv jarayonida foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obekti. Bitiruv malakaviy ishining obekti bo'lib, tish kasalliklarida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar va ulardan tayyorlanilgan preparatlar hisoblanadi.

Ishni bajarishda foydalaniladigan uslublar.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarishda Botanika va O'simliklar eksperimental biologiyasida umumqabul qilingan uslublardan foydalandik.

Ishni bajarish jarayonida asosan dorivor o'simliklar va ularning shifobaxshlik xususiyatlariga bag'ishlangan adabiyotlardan keng foydalanildi.

Ishning ahamiyati. Mazkur bitiruv ishida O'zbekiston sharoitida yovvoyi holda o'sadigan hamda madaniy holda yetishtiriladigan, uy-xonada o'stiriladigan serxosiyat o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari haqida bayon qilinadi. Bunda o'simliklar mahsulotlarining xalq tabobati amaliyotida hamda zamonaviy tibbiyotda tutgan o'rni haqida ham ma'lumotlar beriladi. Bitiruv

ishida bayon etiladigan har bir o`simlik namunasini stomatologiya amaliyotida qaysi usullar bilan qo`llash mumkinligi haqida ham ma`lumotlar keltiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning hajmi 85 betdan iborat bo`lib, 5 ta jadval va 5 ta rasmlar keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishini yozishda 22 manbadan foydalanildi ulardan 4 tasi chet el adabiyoti va internet saytlari.

I BOB. TISH KASALLIKLARIDA DORIVOR O`SIMLIKlardan FOYDALANISH

O`simliklardan davolash vositasi sifatida foydalanish juda ham qadim zamonlardan ma`lum.

Dorivor o`simliklar haqidagi birinchi yozuvlar eramizdan 3 ming yil avvalgi manbalardan topilgan. Ko'pchilik o`simliklar juda qadim zamonlardan beri og`iz bo`shlig`i to`qimalari va tish kasalliklarini davolashda ishlatilib kelinadi. Masalan, Misrda 4 ming yildan ko`proq, Xitoyda esa 2,5 ming yil muqaddam dorivor o`simliklardan milk kasalliklarini davolashda foydalanilgan.

O`simliklardan davolash maqsadlarida foydalanish insoniyatning rivojlanib voyaga yetishi bilan chambarchas bog`liqdir. Odamlarda o`simliklardan, ko`katlardan ovqat sifatida foydalanish borasida ularning uxlatish, zaharlanishni to`xtatish, qusish, ichni yuritish kabi ta`sir kuchlariga ega ekanliklarini kuzatganlar. Keyinnchalik esa ulardan u yoki bu xastaliklarda maqsadga muvofiq ravishda foydalanganlar.

Inson aql zakovati va kuzatishlar dorivor o`simliklarni o`z o`rnida foydalanishga imkon bergan. Barchaga ma`lumki, tabiat olami insonni to`ydiradi, kiyintiradi, havoni poklab beradi, so`lim go`shalar yaratadi, tuproqni eroziyadan saqlab, namlikni ushlab turadi, harorat beradi va hokazo. Xullas, so`z tabiat olamidagi o`simliklar ustida borar ekan, ularning ajoyib xislatlaridan biri, shifobaxshligi to`g`risida to`xtalib o`tmasdan bo`lmaydi. Keyingi vaqtlarda shifobaxsh o`simliklarni tibbiyotda qo`llash bo`yicha qator kitoblar, maqolalar, atlaslar, uslubiy qo`llanmalar bosilib chiqdi. Biroq, ularda faqatgina ba`zi bir dorivor o`simiklarga tish ogrig`ini davolashda foydalanishi eslatib o`tiladi, xolos.

Binobarin, ko`pgina o`simliklarinng kimyoviy tarkibi haqida to`plangan ma`lumotlar ularning farmokologik ta`sirini o`rganish, ko`pchilik tish va og`iz bo`shlig`i kasalliklarining patogenezi, biokimyosi, patomorfologiyasini hisobga

olgan holda dorivor o`simliklardan tayyorlangan dori-darmonlardan stomatologiya amaliyotida foydalanishga imkon bergan bo`lar edi.

Hozirgi zamon farmokologiyasi Abu Ali ibn Sinoning ko`plab dasturlariga asoslangan. Uning shoh asari bo`lmish “Tib qonunlari” da ta`riflangan dorivor o`simliklarning 396 turidan 195 turi hozirda ham qo`llanilmoqda. Olim ko`pgina xastaliklar uchun tavsiya etgan 110 ta o`simlik mahsuloti tasdiqlangan va farmakopiyadan joy olgan.

Hozirgi kunda Vatanimiz zaminida mavjud bo`lgan o`simliklar turining shifobaxsh xususiyatiga ega ekanliklari aniqlangan bo`lib, ularning 235 turi ilmiy tibbiyotda dori-darmon sifatida keng qo`llaniladi (Xudoyberdiev va boshq., 1995).

Mamlakatimizdagi o`simliklarning 600 ga yaqin turi shifobaxsh xususiyatga ega bo`lib, bundan 50 tasi O`zbekiston sog`liqni saqlash vazirligining farmakologik qo`mitasi qaroriga muvofiq tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan shifobaxsh o`simliklardir. Tayyorlanayotgan dori-darmonlarning ta`sir kuchini oshirish va sifatini yaxshilash bilan birga inson salomatligiga zarar qilmaydigan, tabiiy xom ashyolardan tayyorlanadigan dori-darmonlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish dorichilik sanoatimiz oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozir dori-darmonlarning 40 foizidan ortig`i o`simlik xom ashyolaridan tayyorlanadi.

Bu dori-darmonlar, sun`iy kimyoviy usulda ishlab chiqariladigan dorilarga nisbatan qator ustunliklarga ega. Chunki ular tarkibidagi moddalarning turli tumamligi mahsulotlarning shifobaxsh xususiyatini yaxshilabgina qolmay, balki ta`sir etish kuchini va sifatini oshiradi.

Bunday o`simliklarda organik kislotalar, efir moylari, mikroelementlar, vitaminlar, polisaxaridlar, kraxmal, oqsil moddalari, moy kislotalari, mineral tuzlar, nihoyat biologik faol moddalar ko`p miqdorda bo`ladi. Ularning kurtagi, po`stlog`i, bargi, guli, urug`i, mevasi, danagi, ildizi, poyasidan dorilar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Dorivor o`simliklarning qo`llanishi kasallikning qay darajadaligiga, uning qaerda joylashishiga, qanday holatda ekanligiga, dorivor o`simliklarning turiga, farmakologik ta`siri va kontsentratsiyasiga bog`liqdir. Milk va og`iz bo`shlig`ining shilliq qavati yaxshi so`rish xususiyatiga ega, shu boisdan dorivor o`simliklarni chayqash, yopishtirish, milkka qo`yib qo`yish, tish xaltachasini instillyatsiya qilish (dori modda bilan to`ldirish) tavsiya etiladi.

Og`iz bo`shlig`ini chayish va og`iz vannasini uy sharoitida ham bajarish mumkin. Buning uchun dorivor o`simliklardan tayyorlangan 20-30 ml. qaynatma bilan og`iz bo`shlig`i iliq holda tez-tez chayqaladi. Og`iz chayqash o`rtacha 10-12 minut davom etadi. Yaxshi ta`sir qilishi uchun bu tadbir bir kunda bir necha marta takrorlanadi. Parodont va shilliq qavat kasalligida og`iz bo`shlig`ini chayqash va vanna qilish tavsiya etiladi.

Og`iz bo`shlig`idagi ko`p kasalliklar shamollashdan, distrofik jarayondan va ularning birgalikda ta`sir qilishidan kelib chiqadi. Mayda qon tomirlaridagi qon aylanishining tuzilishida va yallig`lanish holatlarida dorivor o`simliklardan tayyorlangan dorilar modda almashinuvi jarayoniga o`z xossalarini ayniqsa yorqinroq namoyon etadi.

Parodont to`qimalarining va og`iz bo`shlig`i shilliq qavatining yallig`lanishi har xil sabablarga ko`ra, chunonchi jarohatlanish, kuyish, nurlanishdan kelib chiqadi. Mikroblar omillar yallig`lanishning kelib chiqishida katta o`rin tutadi. Shuning uchun bunday hollarda mikroblarga qarshi ta`sir qilish xususiyatiga ega bo`lgan dorivor o`simliklar qo`llaniladi. Bu maqsadda qo`llanuvchi dorivor o`simliklariing xillari juda ko`p va keng tarqalgan.

Mikroblarga qarshi ta`sir ko`rsatuvchi dorivor o`simliklardan tayyorlangan dorilar yallig`lanishni keltirib chiqaruvchi mikrofloraning tarkibiga qarab tavsiya etiladi.

Ko`pgina dorivor o`simliklar va ularning mahsulotlari har xil mikroorganizmlarning yashash qobiliyatiga qarshi turish xususiyatiga ega bo`lib (kokklar, zamburug`lar, spiroxetalar), ulardan ko`pchiligi u yoki bu kasallik

tug'druchchi mikrofloraga tanlab ta'sir qiladi. Kokk infeksiyasining ustunligida, ya'ni surunkali kataral, gipertrofik gingivitda va boshqa parodont kasalliklarida xuddi shu mikrofloraga bakteritsid va bakteriostatik ta'sir eta olish xususiyatiga ega bo'lgan fitopreparatlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bunday xususiyatlarga moychechak mahsulotlari, ya'ni romazulan, evkalipt va kalendula – tirnoqgul damlamalari, otquloq sharbati, 1 foizli spirtli salvin eritmasi va hokazolar ega. Ular og'iz vannasi, chayish, instilyatsiya yo'li bilan qo'llaniladi.

Uy sharoitida og'iz chayqash uchun qo'shimcha ravishda og'iz vannachalari qilish uchun yoki applikatsiya uchun dalachoy, tirnoqgul va moychechak gullari, evkalipt bargi, mavrak va otquloq kabilar tavsiya etiladi.

Ko'rsatilgan dorivor moddalar odatda 1 stakan qaynagan suvga 5-6 g. (bir osh qoshiq) hisobidan tayyorlanadi. 1 soat davomida tindirib dokadan o'tkaziladi va iliq holda muolaja qilinadi. Tayyorlangan qaynatmalar yoki damlamalarni salqin joyda 2 kundan ortiq saqlab bo'lmaydi.

So'nggi yillarda antibiotiklar, sulfanilamidlar va mikroblarga qarshi boshqa preparatlarni keng, ko'pincha, nazoratsiz iste'mol qilish ko'payib ketganligi ko'pgina kasallik tug'diruvchi mikroorganizmlarning ushbu dorilar ta'siriga bardosh berish qobiliyatini oshirdi. Shu boisdan parodontozda va ayniqsa parodontal xaltachadan yiringli suyuqlik ajralib chiqayotgan hollarida sintetik antibakterial vositalarni mahalliy qo'llash hamisha ham ko'ngildagidek ijobiy natija beravermaydi. Xususan, yiringli ekssudatning suyuq sekretiga tushgan antibiotiklar tezda ularga o'ralib oladi va o'zining mikroblarga qarshi kuchini yo'qotadi. Ayni paytda ana shu ekssudatga aralashgan antibiotik zarrachalari ekssudatdan allergenlik xossalarini o'ziga singdirib oladi. Bunday hollarda ana shunday xossalarga ega bo'lmagan dorivor o'simlik moddalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir (Xudoyberdiev va boshq., 1995).

Ko'pchilik dorivor o'simliklar va ulardan ishlangan dorilarning afzalligi shundaki, ular o'zaro bir-biriga mos bo'lib, sinergik ta'sir kuchiga ega.

Shuning uchun bir necha o`simlik preparatlarini navbat bilan ketma-ket yoki bir vaqtning o`zida qo`llash ularning shifobaxsh ta`sir doirasini kengaytiradi. Mana shularni hisobga olib, parodont to`qimasining o`zgarishiga mahalliy ta`sir etishni bir turdagi dorivor modda bilan boshlab, ikkinchi bir turdagisi bilan yakunlash mumkin. Masalan, romazulan, evkalipt damlamasi, kalendula, dalachoy bilan og`iz chayqash, vannachalar qilib turib, salvin, xlorofillipt, ustinat natriy bilan applikatsiya yoki instilyatsiya qilish mumkin.

Dorivor o`simliklarni suvli va spirtli eritmaları bilan bir qatorda moy yoki malham shaklida foydalanish mumkin. Bu o`simlik preparatlari milk va milk so`rg`ichlariga muhofazalovchi bog`ich bilan qo`yilganda porodant yumshoq to`qimalaridagi yallig`lanishni tez bartaraf qiladi, mikrofloraning hayot faoliyatini susaytiradi, kapillyarning o`tkazuvchanligini kamaytirib, mikrotsirkulyatsiya jarayonlarini yaxshilaydi.

Dorivor o`simliklardan, ularni o`simlik moylari, danak, shaftoli (mag`zi), zaytun bilan aralashtirganlari xuddi shunday xususiyatga ega. Bir xil miqdorda olingan novoimanin, salvin, natriy ustinat spirtli eritmalarining kanakunjutga 10 barobar qorishmasi bakteriyaga qarshi, yallig`lanishga qarshi, to`qimalarni tiklovchi xususiyatga ega. Bir paytning o`zida bir necha xil o`simlik preparatlaridan foydalanish ayniqsa surunkali kasalliklar (parodontit, gipertrofik qaytalovchi aftoz stomatit va boshq.) zo`rayganda yuqori samara beradi.

Qoraqalpog`iston florasida uchraydigan dorivor o`simliklardan quyidagilari, tish kasalliklarida qo`llaniladi.

1-jadval

№	O`simlikning nomi	Hayotiy shakli	Qo`llaniladigan qismi	Dorivor mahsulot
1.	Annobjiyda <i>Zizyphus jujuba</i> Mill. Унаби обыкновенный	daraxt	mevasi	damlamasi
2.	Behi	daraxt	mevasi	qaynatmasi

	<i>Cydonia oblonga</i> Mill. Айва продолговатая			
3.	Bargizub <i>Plantago major</i> L. Подорожник большой	ko`p yillik o`simlik	bargi	preparati
4.	Bo`ymadoron <i>Achillea nobilis</i> L. Тысячелистник благородный	ko`p yillik o`t o`simlik	yer ustki qismi	damlamasi, ekstrakti
5.	Do`lana <i>Crataegus pontica</i> C.Koch. Боярышник понтийский	daraxt	gullari va mevasi	preparati
6.	Erqalampir <i>Armoracia rusticana</i> Gaertn. Хрен деревенский	ko`p yillik o`t o`simlik	ildizi	nastoykasi, damlamasi
7.	Yong`oq <i>Juglans regia</i> L. Грецкий орех	daraxt	mag`zi, barglari	damlamasi
8.	Zig`ir <i>Linum humile</i> L. Лен низкий	bir yillik o`t o`simlik	urug`lari	moyi, preparati
9.	Karam <i>Brassica oleracea</i> L. Капуста огородная	ikki yillik o`t o`simlik	mevasi	sharbat
10.	Na`matak <i>Rosa canina</i> L. Роза собачья	butasimon o`simlik	mevasi	preparati
11.	Parmachak <i>Rubus caesius</i> L. Ежевика сизая	butasimon o`simlik	barglari	damlamasi
12.	Piyoz <i>Allium cepa</i> L. Лук репчатый	ko`p yillik o`t o`simlik	piyozboshi	preparati
13.	Sarimsoq <i>Allium sativum</i> L. чеснок	ko`p yillik o`t o`simlik	piyozboshi	preparati
14.	Tirnoqgul <i>Calendula officinalis</i> L. Ноготки	bir yillik o`t o`simlik	gullari	nastoykasi, preparati, damlamasi

15.	Shotut <i>Morus nigra</i> L. Тут черный	daraxt	mevasi	sharbati
16.	Eman <i>Quercus robur</i> L. Дуб черешчатый	daraxt	po`stlog`i	preparati, qaynatmasi
17.	Yalpiz <i>Mentha asiatica</i> L. Мята азиатская	ko`p yillik o`t o`simlik	o`ti	preparati, moyi, damlamasi
18.	Qoraqiz <i>Bibdens tripartita</i> L. Череда трехраздельная	bir yillik o`t o`simlik	barglari	ekstrakti
19.	G`ozpanja <i>Potentilla supina</i> L. Лапчатка низкая	butasimon o`simlik	ildizi	damlamasi

1.1. Mahalliy yallig`lanishga qarshi davolash

O`simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar parodont to`qimalariga o`ta faol ta`sir qiladi, regeneratsiya jarayonlarini yaxshilaydi, yallig`lanishga, mikroblarga qarshi, qon to`xtatuvchi, intoksikatsiyaga qarshi ta`sir qilish xususiyatiga ega. Dalachoy, evkalipt, tirnoqgul, kalanxoe, moychechak guli, zubtutum, gazanda, bo`ymadaron preparatlari yallig`lanishga qarshi faol ta`sir qiladi. Bu o`simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar bilan og`izni chayqash, yuvish, applikatsiya, sug`orish, ingalyatsiya, installyatsiya qilish mumkin.

Milk qonashini to`xtatish uchun qon to`xtatadigan o`simlik preparatlaridan tog`arnikasi, gravilat - shirchoy, G`ozpanja, zangvizorba ildizi va bozulbang, bangidevona - lagoxilus kabilar qo`llaniladi.

Parodont to`qimalarida proliferatsiya jarayonlarini susaytirish uchun tsitostatik ta`sir etuvchi dori moddalari qo`llaniladi, romazulan, chachi-befungin ekstrakti shu dorilar qatoriga kiradi.

Milk to`qimalarida o`simtalar paydo bo`lganida kolxamin preparti ishlatiladi. Preparat antimitotik ta`sir kuchiga ega bo`lib, karioplastik

zahar hisoblanadi va blastomoz (to`qima hujayralarning) o`shishi jarayonlarini susaytiradi. Kolxaminning 0,5% li malhami qo`llaniladi. Ishlatilayotgan vaqtda kolxamin atrofdagi to`qimalarga tegib ketmasligi uchun, shilliq qavatni yaxshilab ajratish uchun ehtiyotkorlik darkor.

Aralash ta`sir qiluvchi dori moddalari guruhiga gerbodont va marazlavin kiradi. Bu preparatlar yallig`lanishga qarshi, antiseptik, og`iz burishtiruvchi, sklerotik ta`sir qiladi. Mazkur moddalar o`simliklardan tayyorlangan har xil preparatlar aralashmasidan tarkib topganligi uchun ularni qo`llashga ko`rsatmalar juda kengdir.

Gerbodont - dalachoy, zubtutum, bo`ymadaron, gazanda o`tning spirt-efirli ekstrakti bo`lib, yallig`lanishga qarshi, qon to`xtatuvchi, qon tomirlarini toraytiruvchi va mikroblarga qarshi xususiyatlarga ega. Og`iz bo`shlig`ini yuvish uchun 1 osh qoshiq dori moddasiga 200 ml suv hisobidan aralashtirib qo`llaniladi. Muolaja so`ngida milk yuzasi gerbodontda qorilgan dentin pastasi bilan qoplab qo`yiladi.

Marazlavin - ermon, chinnigul kurtagi, qora murch, toshcho`p o`simliklarining uzum vino sirkasidagi qaynatmasidir. Yallig`lanishga qarshi, og`iz burishtiruvchi, sklerotik, shishga qarshi ta`sir xususiyatiga ega bo`lib, epiteliyda shoxsimon parda hosil bo`lishini yaxshilaydi, sog`lom to`qimalarga salbiy ta`siri va asoratlari yo`q. Milkni yuvish uchun, chayqash, instilyatsiya, applikatsiya qilish uchun qo`ng`ir eman daraxtining po`stlog`i, dalachoy, dengiz karami, bo`ymadaron, zubtutum, na`matak, moychechak, marjon daraxt o`simliklaridan teng miqdorda olib tayyorlangan damlamasidan foydalaniladi. 1 osh qoshiq aralashmaga 200 ml qaynoq suv qo`shiladi.

Xuddi shu o`simliklardan tayyorlangan aralashmani chakanda, makkajo`xori moyiga qo`shib fitopasta, 1/2 osh qoshiq aralashmaga 15-20 g. eritilgan parafin qo`shib esa fitoparafin tayyorlash mumkin. Fitoparafin

quritilgan milkka tish tojini 1/2 qismini qoplab turadigan qilib qo'yiladi va 1 sutkaga qoldiriladi.

Milkka shifobaxsh o'simliklardan bog'lam qo'yish uchun quyidagi preparatlar qo'llaniladi: chinnigul, makkajo'xori, zig'ir, chakanda, kanakunjut, shaftoli danagi, o'rik danagi, na'matak moylari, tokoferol atsetatning 30% li moyli eritmasi.

1.2. Dorivor mahsulotlarni tayyorlash, quritish va saqlash

Shifobaxsh o'simlik mahsulotlarini tayyor holda dorixonalardan, shuningdek maxsus giyohxonalardan harid qilib olish mumkin. Bu dorivor o'simliklar tabiatini yaxshi biladigan, boshqa tur o'simliklardan aniq ajratib oladigan kishilar o'zlari mazkur o'simliklardan mahsulot tayyorlasa ham bo'ladi.

Dorivor mahsulotlar qaysi o'simlik namunasidan tayyorlanishidan qat'iy nazar, har bir kishi nabotot olamiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uni avaylab, qolaversa unga muhofaza nazari bilan qarashi lozim. Dorivor o'simliklarni palapartish o'rib olish, uzish, daraxtga ozor berib mevalarini terish, po'stlog'ini shilish kabi noxush hollarga yo'l qo'ymaslik kerak. Nodir va noyob o'simlik namunalarini bereja dorivor mahsulot sifatida mutlaqo ishlatmaslik darkor.

Dorivor mahsulotlar quyidagi tartibda yig'iladi:

Kurtaklar odatda erta bahorda, ular endigina bo'rtganida tayyorlanadi.

Gullar va gulto'plamlar o'simlik ayni gullagan vaqtida, yoxud ularning gullash jarayonida yig'iladi.

Barglar risoladek qiyofaga kirganida, yaxshisi gullashi oldida terilgani ma'qul.

O`tlar odatda o`simlik gullashi oldida yoki qiyg`os gullagan paytida o`rib olinadi.

Mevalar obdon etilib pishganda, rezavorlar esa (sharbatli mevalar) biroz oldinroq terib olinadi.

Po`stloqlar odatda erta bahorda, po`stloq o`zakdan oson ajraladigan vaqtda shilib olinadi. Buning uchun yosh poyachalar yoki qirqib olingan novdalar bo`yidan 50 sm ga qadar oralatib halqasimon kesiladi-da, ularning o`zaro po`stlog`i uzunasiga kesilib birlashtiriladi va tarnovchasimon yoki naysimon ko`rinishda ajratib olinadi.

O`simlikning yer osti qismi (tuganak, ildiz, piyozboshisi) kech kuz yoki erta bahor pallalarida, ayrim o`simliklarniki gullaganidan keyin yig`iladi, yohud o`simlikniig yer ustki qismi quriganidan so`ng olinib, mahsulot sifatida tayyorlanadi.

Shuni eslatib o`tish kerakki, dorivor o`simliklarning yer ustki qismi faqat ochiq (quruq) havoda yig`ilishi lozim.

Dorivor o`simlik mahsulotlari sifatli qilib yig`iladigan bo`lsa, shuningdek ularni tadbirkorlik bilan qoidaga asosan quritilib saqlanadigan bo`lsa, u holda ulardan tayyorlanadigan dori-darmon turlari ijobiy natija berishi yuqori bo`ladi. Agar dorivor mahsulotlar sifatli qilib yig`ilgan bo`lsa-yu, ularni saqlashda xatoliklarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, bunday hollarda shifobaxsh o`simlikning qimmati yetarlicha bo`lmasligi va ayrim hollarda hatto zararli omillarga aylanishi ham mumkin.

Dastlab yig`ilgan o`simlikning dorivor mahsulotlarini yaxshilab quritib olish zarur. O`simlik mahsulotlari tayyorlangandan so`ng 1-2 soat o`tmasdan quritishga hozirlanadi. Buning uchun xomashyo mahsulot yaxshilab saralanib, begona jismlar va aralashmalardan xoli qilinadi. Dorivor ildiz, ildizpoyalar, loy, tuproq, qumdan ajratiladi, chirigan joylari qirqib tashlanadi. Shundan so`ng ular toza va sovuq suvda yuviladi-da, namlikdan xoli qilinadi. Shundan so`ng tagiga toza to`shama solingan

holda ochiq havoda quritib olinadi. Mahsulotlarga har qanday yot aralashmalar chang, g`ubor, yoxud hasharot va qush chiqindilari tushib qolmasligi uchun ularning ustiga doka, bo`z kabi narsalarni yopib qo`yiladi.

Dorivor o`simliklarning yer ustki qismlari (meva va urug`lari bundan mustasno) ochiq havoda, quyoshning tig`iz nuri ostida quritilmaydi. Chunki bunday vaqtda o`simlik mahsulotlari tarkibida mavjud bo`luvchi shifobaxsh moddalar tabiatan buziladi yohud uchib ketadi. Shu boisdan ham dorivor o`simliklarning o`ti, bargi, gullari quyosh nuridan himoya qilingan soya-salqin joylarda, jumladan bostirma, chordoq, shiyponlarda shamollatib quritiladi. Bunday o`simlik mahsulotlarini quritishda vaqtinchalik panalanadigan joylardan ham foydalanish mumkin.

Dorivorlik qiluvchi meva hamda rezavor-mevalar odatda ertalab yoxud kechki payt teriladi. Chunki kunning issiq vaqtida terilgan mevalar tezda buzilib qolishi mumkin. Quritishda ularning tagiga toza narsa yozilib, siyraklashtirib havol qilib qo`yiladi. Chunki meva hamda rezavorlar zich holda quritiladigan bo`lsa, ular bir biriga yopishib qoladi va sifati buziladi.

Dorivorlik qiluvchi o`simlik urug`lari quyosh nuri ostida, ochiq havoda quritilishi mumkin. Mabodo o`simlik urug`larining quritish jarayonida sochilib ketish havfi tug`ilsa, uni butunlaycha soyaboni yoki boshqochasi, dastasi bilan olinib quritilganidan so`ng asta-sekin ajratib olinsa ham bo`ladi.

Quritilayotgan dorivor o`simlik mahsulotlarini yog`in, namlik, kechki shudringdan muhofaza etish zarur. Buning uchun kechqurun dorivor mahsulotlar ustini birorta nam o`tkazmaydigan mato bilan yopib qo`yish kerak.

Quritish jarayonida dorivor o`simlik ildizlari va ildizpoyasi o`z vaznining 65 foizini, giyohlar esa 70, barglar 80, po`stloqlar - 45, kurtaklar esa 50-60 foiz og`irligini yo`qotadi.

Dorivor o`simlik mahsulotlarining qanchalik quriganini quyidagicha aniqlash mumkin: yaxshilab quritilgan o`simlik ildizlari va po`stloqlari qo`l bilan egib ko`rilganida, ular egilmay sinishi lozim: barg va gullar barmoqlar orasida uvalanib ketishi, rezavor mevalar esa qurib qolganda kaftda qismlab ko`rilganda, mushtlashib-yopishib qolmasligi kerak.

Uy sharoitlarda shifobaxsh o`simlik mahsulotlarini tadbirkorlik bilan saqlash kerak. Shundagina mahsulotlarda biologik faol moddalar - vitaminlar, fermentlar, aminokislotalar va boshqa foydali moddalar (efir moylari) yetarli miqdorda bo`ladi.

Quritilgan dorivor mahsulotlar toza va quruq idishlarda saqlanadi. Mabodo dorivor mahsulot kamroq bo`lsa, ularni shisha bankalarga joylab, polietilen yoki shishali qopqoqlar bilan yopib saqlanadi. Dorivor mahsulotlarni ozoda xaltalarda (qog`oz, surp, bo`z, kanop yoki zig`irli), qutilarda (kartondan yasalgan), ixcham yashchiklarda ham saqlasa bo`ladi. Dorivor kurtak va urug`larni polietilen xaltalarda saqlash tavsiya etilmaydi, chunki sun`iy bunday xaltachalar havoni mutlaqo o`tkazmaydi, natijada urug`, kurtaklar tarkibidagi moddalar «dimiqib» shifobaxsh xususiyatini yo`qotib qo`yadi.

Dorivor mahsulotlar toza, quruq, havo almashib turadigan, quyosh nuri tushmaydigan joylarda saqlanadi. Zaharli va kuchli ta`sir etuvchi dorivor mahsulotlar, tarkibida efir moyi va yog` tutgan dorivorlar alohida joyda saqlanishi kerak. Dori-darmonlar bolalar qo`li yetmaydigan joyda saqlanishi lozim.

Dorivor ildiz, ildizpoya va po`stloqlarni saqlash muddati 3-5 yil, quritilgan gul barg va giyohlar 1-2 yil.

Dorivor mahsulotlarni hashoratlar, kemiruvchilardan himoya qilish maqsadida ularni ip-tizimchalarga osib qo'yish, xalta-quticha og'zi mahkam yopilgan bo'lishi lozim. Maydalangan yoki kukun holidagi dorivor o'simliklar solingan idish yorliqlarida mazkur o'simlik mahsulotining tayyorlagan vaqti ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Eslatma: Uy sharoitlarida valeriana ildizining spirtli eritmasi saqlanadigan bo'lsa, uni mushuklardan nihoyatda ehtiyot qilish zarur.

1.3. O'simlik mahsulotlaridan dorivor moddalar tayyorlash

Xalq tabobatida, shuningdek zamonaviy tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan aksariyat dori-darmonlar damlama, qaynatma, surtma, malham, shuningdek kukun holida ishlatiladi.

Xastalikni davolash yoki uning oldini olish maqsadida uy sharoitlarida shifokor tomonidan tavsiya etilayotgan shifobaxsh dori moddalarini tayyorlashda maxsus tartib va qoidalarga amal qilish zarur.

Dorivor giyoh, shifobaxsh o'simlik mahsulotlari (o'ti, barglari, g'unchasi, guli, kurtagi, ildizi, mevasi, po'stlog'i va boshqa), rezavorlar, sabzavotlar, mevalar sifatli, toza va benuqson bo'lishi kerak.

Shifokor tomonidan davolanish uchun tavsiya etilayotgan u yoki bu dorivor mahsulotlar hozir sanoat miqyosida ishlab chiqariladi. Ular ixcham qilib qadoqlangan holda (qutichada, xaltachada va h.k.), shuningdek yig'ma-choylar, toshchoylar, holida chiqariladi.

Qadoqlangan tayyor dorivor giyohli qutichalarning yorlig'ida mazkur mahsulotdan foydalanish usuli, iste'mol qilish me'yori va uning saqlanish muddati ko'rsatilgan bo'ladi.

Sanoat miqyosida sotuvga chiqarilayotgan dorivor mahsulotlardan uy sharoitida ham dorivor modda tayyorlanishi mumkin.

Dorivor damlama. Odatda damlama ikki usulda tayyorlanadi. Dorivor o`simlik mahsulotining o`ziga xos xususiyatlari inobatga olinib damlama qaynoq hamda sovuq yo`l bilan tayyorlanishi mumkin.

Uy-xona sharoitida qaynoq yo`l bilan damlama tayyorlash uchun dorivor mahsulot suvga nisbatan 1:10 yoki 1:20 hisobida olinadi. Ya`ni 1 hajm yoki og`irlik birligida olingan dorivor mahsulotga 10 yoki 20 hajm birligida suv olish kerak bo`ladi. Masalan, 1:10 nisbatida damlama tayyorlanadigan bo`lsa 10 g miqdorda dorivor mahsulot olinib, unga 100 g/ml suv solinadi.

Dorivor damlama tayyorlashda ro`zg`orda ishlatiladigan og`zi yopiladigan sirlangan, chinni yoki haroratga chidamli shisha idishlardan ham foydalanish mumkin. Odatda, damlama va qaynatma tayyorlashda suv biroz ko`proq olinishi lozim, chunki damlama jarayonida suv qisman bug`lanib, hajmi ma`lum darajada kamayadi.

Suv bilan dorivor mahsulot yaxshilab aralashtirilgach, uning usti qopqoq bilan berkitilib, biroz hajmi kengroq idishga (kastyulka, tog`oracha yoki qozoncha bo`lishi mumkin, qaynab turgan suv ustiga) o`rnashtiriladi, bunday damlamali idish kengroq suvli idishda og`ib ketishi yoki to`ntarilishiga imkon bermaslik tadbiri ko`riladi. «Suv hammomi» ning, ya`ni kengroq idishda suvning qaynash jarayoni 15-20 minut davom ettiriladi. «Suv hammomi» vazifasini o`tayotgan kastyulkadan damlamali idish olinib, uy haroratida 1 soat mobaynida sovutilib qo`yiladi. Shundan so`ng damlama bir necha qatlangan doka yoki bo`z mato vositasida suzilib, siqib sharbati olinadi. Damlama hajmi belgilangan me`yordan kamayib ketgan taqdirda, qaynatib-sovutilgan suv bilan me`yoriga yetkaziladi. Masalan, 50 g dorivor mahsulotga 500 g suv olinib damlama tayyorlash jarayonida ajratib olingan sharbat-450 g/ml ni tashkil etadigan bo`lsa, u holda damlamaning yetishmagan qismiga 50

g/ml qaynatib sovutilgan suv quyilib, umumiy hajm 500 g/ml ga yetkaziladi.

Uy sharoitida ba`zan dorivor o`simlik mahsulotlaridan choy ko`rinishida damlama tayyorlash ham mumkin. Buning uchun mahsulot qaynoq suv bilan chayilgan sirli choynak ichiga solinib, uning ustidan qaynoq suv quyilib, qaynab ketishiga sharoit yaratmay, yengil alanga ustida 15 minut saqlab turiladi. So`ngra damlama sovutilib, suzib yoki choynakdan silqitilib olinadi va qaynash jarayonida yo`qotilgan suv miqdori qaynatilgan suv bilan me`yoriga yetkaziladi.

Damlamani sovuq usulda tayyorlashda (masalan, gulhayri ildizidan) mahsulot ustiga belgilangan miqdorda qaynatib sovutilgan suv solinadi va 4-12 soat davomida «tindirib - damlab» qo`yiladi. So`ngra tayyorlangan damlama suzilib, sharbati ajratib olinadi.

Ba`zi hollarda shifobaxsh giyoh mahsuloti to`g`ridan-to`g`ri choy kabi damlab ichilishi mumkin. Jumladan, kiyik o`ti, tog`jambil, zira choylarni choynakning o`zida damlab ichish ham mumkin.

Dorivor qaynatma. Qaynatma (otvar) aksariyat o`simlikning dag`al qismlaridan (masalan, ildiz, po`stloq, tuganak, g`uddalar) tayyorlanadi. Qaynatmaning tayyorlanishi damlamani tayyorlash usuliga o`xshab ketadi. Qaynatma tayyorlash uchun yaxshilab maydalangan dorivor mahsulot sirlangan yoki chinni idishga solinadi va uning ustiga lozim ko`rilgan miqdordagi qaynoq suv solinib, yengil alanga ustida 20-30 minut davomida qaynatiladi. Shundan so`ng qaynatma alanga ustidan olinib, uy sharoitida 10-15 minut davomida sovutiladi. So`ngra qaynatma suzilib turpidan ajratiladida, kamayib qolgan suv miqdori qaynatib sovutilgan suv qo`shish bilan me`yoriga yetkaziladi.

Uy sharoitida va umuman dorixonada tayyorlangan damlama va qaynatmalar ko`p saqlansa achishi, buzilishi mumkin, shu sababli ularni faqat iste`mol qilish oldidan tayyorlash ma`qul. Damlama va qaynatmalar

iloji boricha salqin yoki sovuq (xolodilnik) joylarda 3 kun saqlanishi darkor. Mabodo dorivor damlama va qaynatmalar saqlanish jarayonida rangini o`zgartirsa, ichida po`panaksimon pardalar hosil bo`lsa, loyqalansa, ta`mi o`zgarsa, shuningdek, begona narsalar tushib qoladigan bo`lsa, bunday dorilarni ishlatib bo`lmaydi.

Uyda tayyorlanadigan dori-darmonlar va barcha preparatlar davolovchi vrach tavsiyasi bo`yicha va belgilab bergan me`yorida iste`mol etilishi lozim. Quvvatbaxsh, ishtaha ochuvchi, darmondorilarni ko`p iste`mol qilmaslik kerak.

Uy sharoitida dorivor omillar tayyorlanishida damlama hamda qaynatma tayyorlanish jarayonining belgilangan muddatdan oshirib yuborilishi xosiyatli o`simlik mahsulotlari tarkibida bo`lgan biologik faol moddalar (vitaminlar, efir moylari, fermentlar va boshq) tabiatning o`zgarib ketishiga sababchi bo`lishi mumkin.

Mabodo shifobaxsh o`simliklardan dorivor mahsulot tayyorlanadigan bo`lsa, unda foydalanilayotgan o`simlik mahsulotlarining maydalanish darajasi katta ahamiyat kasb etadi.

Agar o`simlik barglari, o`ti, gullaridan dorivor damlama tayyorlanadigan bo`lsa, kattaligi 5 mm dan (barglar qalin bo`ladigan bo`lsa, 1 mm dan ortiq bo`lmasligi lozim) oshmasligi kerak. Mabodo dorivor o`simlikning shoxchasi, po`stlog`i, ildizpoyasi, ildizidan qaynatma tayyorlanadigan bo`lsa, u holda maydalangan mahsulotning kattaligi 3 mm gacha borishi darkor, o`simlikning meva va urug`larining kattaligi 0,5 mm gacha bo`lishi talab etiladi.

II. BOB. STOMATOLOGIK KASALLIKLAR VA ULARDA QO`LLANILADIGAN DORIVOR O`SIMLIKLAR

2.1. Stomatologik kasalliklar, turlari va ta`rifi

Stomatologik kasalliklar keng tarqalgan xastaliklar qatoriga kiradi. Quyida bu xastaliklar turlari haqida qisqacha ma`lumotlar beriladi.

Karies. «Millionlar kasalligi» nomi bilan yuritiladigan kasallik bo`lib, karies jahon aholisining qariyb 90 foizida uchraydi. Karies lotin tilida chirish, irish yoki suyak chiqishi ma`nosini anglatadi. Bunda tishning qattiq to`qimasi yemirilib, kovak hosil bo`ladi. Xastalik hiyla uzoq vaqt davom etadigan surunkali kasallik hisoblanadi. U ba`zi kishilarda tez kechib, tez orada tishini yemirib tashlaydi.

Karies kasalligining kelib chiqishiga juda ko`pgina omillar sabab bo`lishi mumkin.

Olimlarning bir guruhi karbonsuv (uglevod) li ovqatlar, ularning qoldiqlari, so`lak tarkibidagi fermentlar va og`iz bo`shlig`idagi mikroblar ta`sirida tish emalini eritadigan kislota hosil qilish qobiliyatiga ega deb hisoblaydilar. Bu olimlar nazarida birinchi bosqich. Ikkinchi bosqichda tish emalining ochilib qolgan himoya qobig`ida endi zo`r berib ta`sir qiladigan mikroblarning kislota hosil qiluvchi roli ortadi.

Yana bir nazariyaga qaraganda, kariesning paydo bo`lishi organizmda kechadigan umumiy jarayonlarga bog`liq bo`ladi, jumladan, hujayra tuzilishi va hujayralararo aloqalar darajasidagi moddalar almashinuvidagi buzilishlar, neyrohumoral uyg`unlik buzilishi, organizm oziqlanishi, unga organik (oqsil) va anorganik (mikroelementlar) moddalarning yetarli darajada tushmasligi, immunologik reaksiyalarning buzilishi va hokazo. Mazkur nazariyaga muvofiq, tishlar emali - tirik to`qima, shuning uchun karies paydo bo`lishi kishi organizmining holatiga uzviy aloqador hisoblanadi.

Kariesning kelib chiqishiga yana bir sabab - organizmga va tish to'qimasiga uzoq muddat davomida ta'sir qilib turadigan ko'pgina omillarning majmuidir.

Pulpit. Bu xastalik kariesdan kelib chiqadigan asorat hisoblanadi. Pulpitda tishning nerv va qon tomirlari zararlanib, yallig'lanish sababli qattiq og'riq xuruj qiladi. Buni o'tkir pulpit deyiladi. Og'riq to'satdan bo'lib, tez to'xtaydi. Uning tabiati va kuchliligi turlicha bo'ladi. Og'riq butun jag'ga tarqaladi, chakkaga, quloqqa beriladi va hokazo.

Pulpit hosil bo'lishiga mikroblarning dentin ariqchalari orqali pulpaga tushishi sabab bo'ladi. Ular pulpa to'qimasini to'xtovsiz ravishda zaharlab va ta'sirlab turadi. Paydo bo'lgan og'riqni qoldirish uchun odamlar ko'pincha o'z bilgilaricha turli usullarni qo'llaydilar. Jumladan, og'izlarini aroq, odekolon bilan chayadilar, bunda shilliq pardalar kuyadi. Bunday davolar vaqtinchalik og'riq qoldiradi.

Periodontit. Bu dard - tish ildizini o'rab turuvchi to'qimalarning yallig'lanishi hisoblanadi. Kasallik odatda pulpitni o'z vaqtida davolatmaslik oqibatida tish ildiz kanali orqali mikroblarning periodontga o'tishi, qattiq ovqatlarni tishlash vaqtida periodontning jarohatlanishi, urilish natijasida tishlarning sinishi yoki o'z o'rnidan qo'zg'alishi, tish protezlarining noto'g'ri tayyorlanishi natijasida boshlanadi. Bemorlar simillagan og'riq sezadilar, og'riq tishni-tishga bosganda, ba'zan tilni tegizganda zo'rayadi. Kasal tish go'yo o'sib qolgandek bo'ladi. Kasal tish tevaragidagi milk shishadi va qizg'ish tus oladi. O'tib ketgan hollarda, yiring suyakning butun ichidan o'tib, suyak parda tagida yig'ilishi mumkin. Bunda tish tinmay og'riydi. Aksariyat hollarda lunj salqiydi.

Kasal tish tarafidagi qovoq yoki yuzning yarmisi shishadi. Ko'pincha tana harorati 38-39° gacha ko'tariladi. Bunda zudlik bilan tibbiy choralar ko'rish zarur.

**Jag` periostiti.** Mazkur kasallik o`tkir yallig`lanish jarayoniga kirib, aksariyat periodontitning asorati sifatida ta`riflanadi.

Kasallik tish atrofidagi milk va jag` suyaklariga yondoshib turgan yumshoq to`qimalarning shishi bilan boshlanadi. Ba`zi paytlarda yallig`lanish milkning tish ildiziga yaqin turgan shilliq qavatida paydo bo`lib, xalq iborasida «pilla» (flyus) deb yuritiladi. Ko`pincha jag` suyagi atrofidagi shishlar tez kattalashib, og`riq zo`rayib ketadi, tish bepand bo`lib, qimirlaydi, tana harorati 38-39°S gacha ko`tariladi.

Parodontoz. Buni alveolyar pioreya deb ham yuritiladi va atrofdagi to`qimalarning surunkali kasalligi hisoblanadi. Xiyla ko`p uchraydigan mazkur kasallik uzoq davom etadi va tishlarning qimirlab qolishiga, ba`zan esa tushib ketishiga sabab bo`ladi.

Parodontoz avvaliga mutlaqo sezilmay rivojlanadi. Goho kasallar milkning qichishi, achishishini sezadilar, tishning bo`yin qismi ayniqsa sezgir bo`lib qoladi. Keyin tishlarning sezgirligi ortib ketadi, sovuq havoni nafasga olganda og`riydi, nordon ovqatni yeganda ham og`riydi. Bu tish ildizining ochilib qolishi va tish sezuvchi nerv tolalarining ta`sirlanishi natijasida sodir bo`ladi. Ma`lum guruh tishlar, atrofi shishadi. Ayrim tishlar qattiq ovqat yeganda og`riydi; milk qizaradi, qonaydi, bosganda tish oldi to`qimasidan yiring chiqadi. Tishlar va tish - milk cho`ntaklari orasidagi ovqat qoldiqlarining chirishi hamda tish oldi to`qimalarining emirilishi sababli og`iz bo`shlig`idan qo`lansa hid keladi. O`tib ketgan hollarda og`iz bo`shlig`ida yemirilgan yoki juda qimirlab qolgan tishlar qayd etiladi, ular deyarli og`riqsiz tushadi. Oqibatda ovqat yetarli darajada chaynalmaydi, tishlarning yemirilgan sohalarida zaharli moddalar ajratuvchi va og`iz bo`shlig`idan organizmga kiradigan mikroblar yig`iladi. Buning natijasida umumiy kasalliklar, ayniqsa ovqat hazm qilish a`zolarida, jumladan me`da-ichak kasalliklar paydo bo`lishi mumkin.

Gingivit. Bu ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavati kasalliklaridan boʻlib, milk yalligʻlanishi - boshlanishida milk gardishi, tishlararo soʻrgʻichlarning qizarishi bilan hosil boʻladi. Mabodo oʻz vaqtida mutaxassis shifokorga murojaat etilmasa, kasallik ogʻirlashadi, qizarish kuchayadi, milk shilliq qavati shishadi, tishlararo soʻrgʻichlar yiriklashadi, ular aksariyat hollarda koronkani berkitib qoʻyadi. Tishlar tozalanganda, ovqat yeyilganda milk qonaydi va simillab ogʻriydi. Milk yalligʻlanishi koʻpincha koʻp miqdordagi milk osti va usti tish toshi yigʻilishi bilan kechadi. Bu tosh milkni shikastlantiradi, patologik milk choʻntaklari hosil boʻladi, ogʻizdan yoqimsiz hid keladi, tishlar qimirlab qoladi.

Ayni kishi organizmi darmondorilarga nisbatan toliqqanida, bemor surunkalik kasallikka yoʻliqqanida skorbutik gingivit rivojlanishi mumkin. Ogʻiz boʻshligʻi shilliq pardasi kasallik boshlanishida koʻkimtir tusli boʻladi. Bemor tez charchaydi va uyquchan boʻlib qoladi.

Stomatit. Bu ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatining yalligʻlanishidir. U aftoz, yara, dori-darmonlar bilan zararlanishida va ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavati ishqorlar, kislotalar bilan kuyganda kuzatiladi. Stomatitlar alohida kasallik holida kechishi va boshqa kasalliklar (qizamiq, qizilcha, gripp, meʼda-ichak kasalliklari) ning belgisi boʻlishi mumkin.

Aftoz stomatitida lab, lunj, tanglay, til shilliq qavatida sargʻimtir - kulrang yoki sargʻimtir - qizil karash bilan qoplangan dumaloq kungurasimon shakldagi afta (yaracha) hosil boʻladi. Tibbiyotda oʻtkir va surunkali qaytalovchi aftoz stomatit tafovut qilinadi.

Oʻtkir avtoz stomatit koʻpincha 1 yoshdan 11 yoshgacha boʻlgan bolalarda uchraydi. Dastlab aftalar siyrak boʻlib, keyinchalik ularning soni koʻpayadi. Til yuganchasi, uchi, til yoni tomonlaridagi va labdagi aftalar juda azob beradi.

Aftali stomatit aksariyat hollarda surunkali qaytalanadi. Bunday hollarda aftalar kam bo`ladi va og`riq aytarli sezilmaydi.

Stomatitlarning kataral, dori-darmonlar keltirib chiqaradigan zamburug`lar paydo qiladigan, vitaminlarning yetishmasligi, jarohatlanish bilan bog`liq turlari qayd etiladi. Shuningdek, chekish va quvvatli spirtli ichimliklar ichish, juda issiq yoki sovuq ovqat yeyish ham stomatitni paydo qilishi mumkin.

Gerpetik stomatit. Bu xil kasallikka viruslar sabab bo`lishi mumkin. Buni xalq iborasida uchuq yoki yassi temiratki deb ataladi. Gerpetik stomatitning o`tkir va surunkali qaytalanuvchi turi mavjud. O`tkir xilida labning shilliq pardasi va unga yondoshgan terida pufakchalar paydo bo`ladi. Surunkali gerpetik stomatit kishi a`zolarida infektsiya o`choqlari bo`lganida, shikastlanish, jarohatlanish sodir bo`lishi natijasida bemor quvvatdan ketganda va boshqa holatlarda sodir bo`ladi. Kasallik tez-tez qaytalab turishi bilan kechadi.

Glossalgiya. Mazkur og`iz bo`shlig`iga oid kasalligida tilning bir yoki ikki qismi achishib, o`tkir narsa qadalgandek, og`rib uvishadi. Bemorning go`yo tili kuygandek bo`ladi. Bu hol ko`pincha ovqat yeganda, so`zlashganda kuchayadi. Tilning yuzaki ko`rinishida aytarli o`zgarish sezilmasa-da, diqqat bilan nazar solganida xiyol qizarishlik qayd etilishi mumkin. Bunday xastalikka odamning asab tizimi, me`da-ichak, qon kasalliklari hamda modda almashinuvining buzilishi sabab bo`lishi mumkin.

Glossit. Bu, tilning yallig`lanishi bilan bog`liq kasallik bo`lib, aksariyat yemirilgan tishning o`tkir zirxlari tegib chaqa bo`lganda, tish protezi noto`g`ri tayyorlanganda, til kuyganda sodir bo`lishi mumkin. Tilning shishishi, ta`m bilish sezgisining pasayishi, ovqat chaynaganda, gaplashganda, tilda noxush og`riq paydo bo`lishi kasallikning o`ziga xos belgilaridan hisoblanadi.

Sachratqi (pemfigus) va **Dyuring dermatiti**. Bunda ogʻiz boʻshligʻi shilliq pardasiga toshmalar toshadi. Sachratqilar odatda ham ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatiga, ham teriga, bir vaqtning oʻzida teri yoki oldingi shilliq qavatlarga, soʻngra teri qoplamlariga toshadi yoki aksincha boʻladi. Faqat teriga yoki faqat shilliq qavatga tushishi mumkin.

Sachratqida ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatida yoki tilda har xil kattalikdagi ichi tiniq yoki biroz xira suyuqlik saqlagan pufakchalar paydo boʻladi. Bitta yoki bir necha pufakcha toshishi mumkin. Ular yorilib, qonab turadigan, qiyin bitadigan eroziya (nam chiqarib turadigan yuza) hosil qiladi, u yiring – qonli karash bilan qoplanib, badboʻy hid chiqarib turadi. Shu joydan sal tortilsa, teri koʻchib, ancha joyga tortiladi. Pufakchalar vaqti-vaqti bilan toshadi. Kasallik boshlanishida bemorning umumiy ahvoli uncha oʻzgarmaydi va subʻektiv shikoyatlar kam boʻladi, keyinchalik umumiy darmonsizlik kuchayadi, bemor isitmalaydi, intoksikatsiya boshlanadi.

Dyuring dermatiti terida va ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatida zich joylashgan pufakchali toshmalar toshishi bilan farq qiladi. Mazkur kasallikda umumiy ahvol aytarli oʻzgarmaydi.

Allergik kasalliklarda ham ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavati zararlanishi mumkin. Bu holda teriga poʻrsildoqlar toshadi va lab, til va ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavati zararlanadi. Eshakem toshganda ayrim joylar vaqtincha salqiydi, shilliq qavat sohasi koʻtarilgandek boʻladi, shishadi va turli rangga - och-pushti rangdan to toʻq qizil ranggacha kiradi. Poʻrsildoq toshishidan oldin eshakem qaytganda qichishi yoʻqoladi.

Leykoplakiya. Bu xastalik ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatining surunkali yalligʻlanishi boʻlib, u aksariyat tamaki chekadigan kishilarda sodir boʻladi. Tamaki tarkibidagi taʼsirchan omillar, shuningdek hiyla yuqori harorat ogʻiz boʻshligʻidagi shilliq pardalarga salbiy taʼsir

ko`rsatadi. O`z navbatida bu muhit leykoplakiyaning kelib chiqishida ma`lum darajada vositachilik qiladi. Bu kasallik bemorni uzoq muddat aziyatlamay kechishi mumkin. Vaqt o`tishi bilan og`iz shilliq pardasining epiteliy qavati muguzlanishi oqibatida kulrang - oqish pilakchalar hosil bo`ladi. O`z navbatida ular keyinchalik lunjning ichki yuzasida va tilda ko`rinadi, ular shilliq parda yuzasidan biroz ko`tarilib turadi. Leykoplakiya yillar mobaynida bemorga ozor bermay turishi, vaqti o`tishi bilan yiriklashib, yaraga aylanishi, o`z vaqtida tegishli tibbiy yordam ko`rsatilmasa, xavfli xastalikka aylanishi ham mumkin.

Og`izning badbo`y hidi. Ba`zi odamlarning og`zidan noxush hid anqib turadi. Og`izdan badbo`y hid kelishiga mahalliy tabiatdagi turli sabablar (og`iz bo`shlig`ining holatiga qarab), tana a`zolari va tizim kasalliklari sabab bo`ladi.

Yarali va gangrenali stomatitlar, gangrenaga uchragan tishlar, tish karashlari yig`ilishi, tishdagi yumshoq karash, parodontoz (yiringli turi) hamda og`iz orastaligiga e`tiborsizlik, yomon turgan protezlar, kechasi olinmaydigan sun`iy tishlar, surunkali milk illatining ajralishi, ovqat qoldiqlarining burmalarda yig`ilishi kabi holatlar mahalliy sabablarga kiritilishi mumkin.

Og`izdan badbo`y hid anqishiga yuqori nafas yo`llarining surunkali yallig`lanishi, surunkali kechadigan tumov, gaymorit, qizilo`ngach, me`da - ichak kasalliklari va boshqa omillar sabab bo`ladi. Bunda me`da ichidagi narsaning uzoq turib qolishi sababli yetarli harakatlanmasligi, jigar kasalligi, diabet, qon kasalliklari, buyrak kasalliklari ham ma`lum darajada og`izdan badbo`y is kelishiga olib kelishi mumkin. Ba`zi hollarda, so`lakning kam ajralishi natijasida og`iz bo`shlig`ining qurishi, nerv sistemasi buzilishi oqibatida ham og`iz islanishi mumkin.

Yuqorida aytib o`tilgan stomatologik kasalliklarning oldini olish, shuningdek sodir bo`lgan xastaliklarni davolash maqsadida tibbiy dori-

darmonlar bilan bir qatorda shifobaxsh o`simlik mahsulotlaridan tayyorlanadigan vositalar (qaynatma, damlama, tindirma va boshqa.) bilan turli muolajalar qilish borasida so`z yuritiladi.

Har bir dorivor omilni o`z o`rnida tadbirkorlik bilan ishlatiladigan bo`lsa, so`zsiz stomatologik xastaliklardan forig` bo`lish osonlashadi.

2.2. Tish kasalliklarida qo`llaniladigan dorivor o`simliklar

Aloy-Aloe-Aloe. (ruscha - aloe drevovidnoe, arabcha - sabr, sabur).

Aloy (sabro`t)-piyozguldoshlarga mansub ko`p yillik o`tsimon o`simlik yoki daraxtsimon o`simlik namunasi, 250 turi qayd qilingan bo`lib, ular asosan Afrika, Arabiston yarim oroli, Madagaskarda, ayniqsa Sokkotra orolida yarim cho`l hududlarda keng tarqalgan. Uni Ovruponing O`rta dengiz sohillarida yovvoyi holda uchratish ham mumkin.

Aloy turlarining poyasi tik o`sadi (bo`yi vatanida 4 m gacha yetadi) pastki qismi shoxlangan bo`ladi. Barglari doimo yashil, qilichga o`xshash, yuqori tomoni botiq, pastki tomoni do`ng, qirrasi tikanlar bilan qoplangan. Xonaki aloyning barglari uzunligi 20-65 sm, qalinligi 12-15 mm, sershira bo`ladi. Gullari to`p barg o`rtasidan chiqqan bo`lib, gul o`qiga joylashgan shingilni hosil qiladi. Gul bargi 6 ta, 3 tadan ikki qator joylashgan. Mevasi - uch qirrasi, tsilindrsimon ko`sakcha.

H. Xolmatovning keltirgan ma`lumotlariga qaraganda, xonalarda aloy turlaridan aksariyat daraxtsimon aloy, eru aloy, guldor aloy, to`q rangli aloy va boshqalar o`stiriladi. Dori turlari tayyorlash maqsadida Gruziya va Markaziy Osiyoda bir yillik o`simlik sifatida daraxtsimon aloy va yo`l-yo`l aloy o`stiriladi.

Akademik V.P. Filatov aloy tarkibida inson organizmiga hayotbaxsh ta`sir ko`rsatadigan biogen stimulyatorlar borligini ko`rsatib o`tadi. Aloyning qirqilgan barglari 12 kun davomida qorong`i joyda bir qadar

pasaytirilgan haroratda (+ 4-8°S) saqlab turiladigan bo`lsa, mazkur mahsulotdan organizmning sog`ayishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadigan, ashaddiy bakteriyalarga halokatli ta`sir qiladigan omillar hosil bo`ladi. Aloyning bu xususiyatlari klinik sharoitlarda o`rganilib, davolash amaliyotida qo`llanila boshlandi.

Aloy tarkibida, jumladan sharbatidan olinadigan mahsulotlar: aloin, emodin kabi antroglukozid asoslari, organik kislotalar, smola, fitontsidlar, oshlovchi moddalar, efir moylari, vitamin S, karotin va boshqa moddalar bor.

Aloy preparatlari yaqqol ko`rinishdagi yallig`lanishga qarshi, jarohatlarni tuzatuvchi hamda kuyishga qarshi xususiyatlariga ega. Ulardan parodontit, kataral va yarali gingvit, surunkali qaytalanadigan aftoz stomatitlarda yopishtirish (applikatsiyalar) installyatsiya ko`rinishida foydalaniladi.

Aloyning suvli ekstrakti teri ostiga nishlanadi, shunda u to`qimalarda modda almashinuvini kuchaytiradi, quvvatbaxsh ta`sirga ega bo`lib, tuzalishi sust kechadigan yallig`lanish jarayonlariga durust ta`sir ko`rsatadi. Preparat 1-2 ml dan ampulalarda chiqariladi, davolash davrida 25-30 marta teri ostiga yuboriladi.

Rp.: Succ. Aloes 200 ml

D. S. Primochka qilish, jarohatlarni yuvish va og`iz bo`shlig`ining boshqa shikastlanishlarida foydalaniladi.

Rp.: Succ. Aloes 200ml

D. S. 1 choy qoshiqdan kuniga 2 - 3 marta ovqatlanishdan oldin ichiladi. Surunkali qaytalovchi aftoz stomatitlarda davolanish kursi 3 haftadan 2 oygacha davom etadi.

Rp.: Extr. Aloes fluidi 2 ml D. t. d. N. 30 in ampul!. D. S. Kunora 2 ml dan teri ostiga 1 % li 1ml novokain bilan yuboriladi.

Annobjiyda - *Zizyphus jujuba* Mill. (o`zbekcha - chilonjiyda, jilonjiyda, tojikcha - chaylon, turkmancha - adatki arkap, ruscha - unabi).

Annobjiyda - jumrutdoshlar oilasiga kiradigan, bo`yi 2-5 m ga yetadigan daraxt. Mazkur oilada 60 turkum va 900 dan ziyod tur bo`lib, uning keng tarqalgan joylari Xitoy, Hindiston va ba`zi O`rta Er dengizi bo`yi mamlakatlari hisoblanadi. Shuningdek bu o`simlik Bolqon yarim oroli, Turkiya, Afg`oniston, Mo`g`iliston, Quriya, Yaponiya, Osiyoning janubidagi mamlakatlar, Afrika, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi joylarda o`sadi.

Ma`lumotlarga qaraganda, annobjiyda Markaziy Osiyo respublikalari va Janubiy Qozog`iston tog`larining o`rta qismida, dengiz sathidan 1500 m gacha balandlikdagi tosh - shag`al tuproqli qiyaliklarda, tepaliklarda uchraydi.

Annobjiydaning jaydari, oddiy hamda madaniy navlari bo`lib, ular bir-biridan tashqi ko`rinishi, mevalarining shakli, salmog`i bilan ajralib turadi.

Annobjiyda novdalari tukli, eski novdalari tuksiz bo`lib, barglari cho`ziq tuxumsimon, bandli bargining uch qismi biroz uchli-cho`ziqroq, cheti to`mtoq tishli. Ular shoxchalarda ketma-ket joylashgan. Kosacha barglari tuxumsimon, uch qismi o`tkirlashgan, Gultojbarglari kosachabarglardan qisqa, asosiga qarab toraygan. Mevasi danakli dumaloq yoki cho`ziqroq tillarang, qizg`ish - sariq bo`lishi mumkin. O`simlik iyun - iyul oylarida gullab, mevasi avgust - sentyabrda pishadi. Annobjiyda madaniy navlari mevasining kattaligi 6 sm gacha, eni 5 sm gacha borishi mumkin.

Jilonjiyda - annobjiydaning mevasi tarkibida 20-30% qand, 2,5% gacha organik ishqorlar, danagida 33% gacha moy, S darmondorisi, oqsil, efir moyi, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

O`simlikning barglari tarkibida 700 mg gacha S darmondorisi, 1,77% glikozidlar, 2,64% gacha organik kislotalar, saponinlar, alkaloidlar, fitontsidlar, 2,5% gacha qand moddalari, karotin, 1,6% rutin, 1,7% anesteziya (a`zoni karaxtlaydigan) qiluvchi birikma, 7,7% oshlovchi va boshqa moddalar bor. Daraxt po`stlog`i tarkibida qand, organik ishqorlar, oshlovchi va boshqa moddalar uchraydi.

Annobjiyda bilan shotut mevalari asosida damlama tayyorlab iste`mol etiladigan bo`lsa, bo`g`ma, qizilcha hamda chechak kasalliklariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi, agar damlama bilan og`iz chayiladigan bo`lsa, og`izdagi jarohatlanishlarga davolik qiladi.

Hozir annobjiyda asosida «Jilonjiyda» nomi bilan atalgan tish pastasi sanoat miqyosida chiqarilmoqda. Bu pastadan foydalaniladigan bo`lsa, nafaqat tishlarning bepand bo`lishidan saqlab qolmasdan balki og`iz bo`shlig`idagi illatli yara - chaqalardan asraydi, elikishdan saqlaydi.

Rp.: Fructum Zizyphus jujuba 200,0

D. S. 2 osh qoshiq maydalangan meva 1 stakan qaynoq suv bilan 1 soat damlangach, suzilib og`iz bo`shlig`i chayiladi.

Behi - Cydonia oblonga Mill. (ruscha - ayva prodolgovataya; tojikcha - bixi; turkmancha - begi).

Behi atirguldoshlar oilasiga mansub, bo`yi 12 m gacha boradigan sershox daraxt. O`simlikning yosh novda va barglari tukli bo`lib, barglari tuxumsimon yoki keng ellipssimon. Ularning bo`yi 5-10 sm, eni 7,5 sm gacha bo`lishi mumkin. Barglarining bandi kalta, shoxlarda ketma-ket joylashgan. Mevasi tukli, sariq yoki tillarang, og`irligi ba`zida 3 kg gacha borishi mumkin. Meva yetilib pishganida sershira bo`ladi, ularning ko`rinishi yumaloq yoki biroz cho`ziq bo`lishi mumkin. Mazasi chuchmal, biroz burushtiruvchi. Mevadagi urug`lar bir nechtdan bo`lib, ularning usti shilliq parda bilan qoplangan bo`ladi.

O`simlik bahor o`rtalarida gullaydi, gullari pushti yoki oq bo`lishi mumkin, uning otalik ustunchalari binafsha yoki sariq bo`ladi. Mevasi sentyabr - oktyabr oylarida pishib yetiladi,

Behi O`zbekistonning barcha viloyatlarida yetishtiriladi.

Behi mevalarining shifobaxshligi qadim zamondan ma`lum, Uning mevalari tarkibida 12% ga qadar qand, 5% ga yaqin organik kislotalar (olma, uzum, limon kislotalari), efir moylari, pektin va oshlovchi moddalar, vitamin S, temir, mis, kaltsiy tuzlari mavjud. Behi urug`larida 20% atrofida shilliq, glikozid amigdalın, 8% dan oshiq moy, kraxmal, oshlovchi va oqsil moddalar, emulsin bor.

Stomatologiya amaliyotida behi urug`lari asosida tayyorlanadigan shilliqli suyuqlik (5 hissa behi urug`ini 100 hissa suv bilan damlab chayqash vositasida hosil qilinadi) o`rab oluvchi samarali omil sifatida deskvamativ glossit, gingivit, parodontit kasalliklarida applikatsiya (yopishtirish) yo`li bilan foydalanadi. Behi urug`laridan shilliqli suyuqlik tayyorlashda faqat butun urug`lardan foydalaniladi, chunki urug`ning qobig`i buziladigan bo`lsa, urug` endospermasidagi amigdalın glikozidi erib chiqishi mumkin.

Odatda behi urug`lari mevalardan ajratib olingach (faqat yetilib pishgani mevalardan ajratib olinishi kerak), ozoda sathli joylarda muhofazalangan ochiq havoda yoxud maxsus qurituvchi moslamali joylarda (sushilka) quritib mahsulot tayyorlanadi.

**Bargizub (Bo`zchi) - *Plantago major* L.** (Ruscha - podorojnik bolshoy; qozoqcha - boqa jab- rak, taibdori, joljelken: qirg`izcha - baqayapirmoq; tojikcha - filgo`sh; forsha - bortang; arabcha - lisa-nil xamal; turkmancha - uli atgulak).

Bo`zchi - katta zubturm va nashtar barg zubturm xalq tabobatida keng qo`llaniladi, ko`p yillik o`tsimon o`simlik. Uning yo`g`on, kalta ildizi bo`lib, juda ko`p ipsimon ildizchalar qamragan bo`ladi. Poyasi

nayza ko`rinishida, yagona yoki bir nechta bo`lishi mumkin, ularning kattaligi 10-70 sm keladi va u boshqosimon to`pgul bilan tugaydi. Barglarining cheti tekis yoki biroz tishli bo`lib, umumiy ko`rinishi keng tuxumsimon yoki keng ellipssimon, uchsiz, asos qismi odatda dumaloqlashgan bo`ladi, barglarda 3-7-9 ta tomiri bo`lishi mumkin. Gullari mayda, ko`rimsiz boshqqa to`plangan, Mevasi - tuxumsimon, ko`p urug`li ko`sakcha, ular to`q jigarrang, qo`ng`ir, yiltillaydi. O`simlik may-sentyabr oylarida gullaydi.

Bo`zchi keng tarqalgan o`simlik bo`lib, uni tashlandiq yerlarda, nam o`tloqlarda, ariq, jilg`a, soy, daryo bo`ylarida, to`qaylarda umuman begona o`t sifatida aholi istiqomat qiladigan joylarda, yo`l yoqalarida uchratish mumkin.

Bo`zchining barglari dorivor mahsulot sifatida o`simlik ayni gullash davrida terib olinadi. Mutloq holda o`simlikni tagi bilan o`rib olish yaramaydi, bu bo`zchizorlarning kamayib ketishiga olib keladi.

Bo`zchi barglari tarkibida aukubin glikozidi, shilliq (11% atrofida), achchiq hamda oshlovchi moddalar, flavonoidlar, organik kislotalar, provitamin A, vitamin S va K, ko`p miqdorda mannit va 1,3% sorbit, shuningdek oz miqdorda alkaloidlarni saqlaydi.

Stomatologiya amaliyotida bo`zchi preparatlarining et oldiruvchi hamda mikroblarga qarshi xususiyatlaridan o`rinli foydalaniladi. Jumladan, o`simlik barglari asosida tayyorlangan damlama yoki barglarning sarxil shirasi tashqi muolaja sifatida ijobiy natija beradi. O`imlik damlamasi bilan og`iz chayiladigan yoki applikatsiya sifatida foydalaniladigan bo`lsa, yarali gingivit - stomatitda, shuningdek eroziyali, aftozli hamda postgrippozli stomatitda shifolovchi omil hisoblanadi.

Bo`zchining sarxil barg shirasi xuruj qilib asorat berayotgan parodontitni kechishida tish - milk «cho`ntak» lariga ishlov beriladi. Mazkur maqsadda bo`zchi bargidan 10 g olib, 90 ml shaftoli moyi hamda

10 g vazelinli surtma tayyorlanadi. Surtma tish - milk cho`ntaklariga kirgizilib, 1-2 sutka mobaynida himoyalovchi bog`lama qo`yib qo`yiladi,

Rp: Succi Plantaginis 250 ml

D. S. Tish - milk cho`ntaklariga ishlov berish uchun.

Bo`ymodaron - *Achillea millefolium* L. (Ruscha - tisyachelistnik obiknovenniy, (Qozoqcha - akbas jusan, aksheshek, minjapraq, tojikcha – buyma - doroni oddi, turkmancha - boybodron, arabcha – alfi - lavrok, baranjasib, forsha - buymodaron).

Bo`ymodaron - murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi ko`p yillik o`t o`simlik bo`lib, bo`yi 70-80 sm ga etadi. Barglari patsimon qirqilgan, yashil rangli, ustki tomoni tukli, ular poyachada bandsiz ketma-ket joylashgan. Poyaning uchida yassi to`pgullar savatcha ko`rinishida joylashgan bo`lib, ranglari kumushsimon - oqish bo`ladi. Mevasi - kulrang pista. O`zbekiston sharoitida bo`ymodaron iyun, avgust oylarida gullaydi, mevasi yozning oxiri va kuz boshlarida yetiladi.

O`zbekistonning adir, qir, o`tloq, tog` yonbag`irlari, yo`l atroflari, bog`larida, mayda shag`allik qiyaliklarida uchraydi.

Bo`ymodaronning dorivor mahsuloti - uning yer ustki qismi hisoblanadi. Odatda o`simlik qiyg`os gullash davrida o`rib olinib, quritilib yanchiladi.

Bo`ymodaronning dorivor mahsuloti tarkibida 0,7 - 1,2% miqdorda efir moylari mavjud bo`lib, uning tarkibiga timol, kavakrol, p-tsimol, terpinen, terpineol, borneol, tsingiberen, seskviterpen, koriofillen kiradi. Bular orasida timol 42% gacha bo`lib, o`simlikning dorivorlik qimmatini belgilaydi. Shuningdek bo`ymodaron tarkibida vitamin S, K, karotin, fitontsidlar, glikoalkoloid axillein, flavonoidlar, organik kislotalar (urosol, oleanol, qahva, xlorogen, xin kislotalari), oshlovchi va achchiq moddalar bor.

Stomatologiya amaliyotida bo`ymodaron preparatlari (damlama hamda suyuq ekstrakt) og`iz bo`shlig`ining shilliq qavatidagi tuzalishi qiyin bo`lgan yaralarda, parodontitda, gingivit - stomatitlarda foydalaniladi.

Uy sharoitida bo`ymodaron o`ti asosida quyidagicha damlama tayyorlanadi: 15 g (2 osh qoshiq) mahsulotni sirlangan idishga solib, ustiga 200 ml (1 stakan) qaynoq suv quyilib, og`zi berkitilgach, qaynab turgan suv «hammomi»da 15 minut ushlab turiladi. So`ngra uy haroratida 45 minut sovutiladi va suzib olinadi. Sharbatning hajmi 200 ml bo`lgunicha qaynatib sovutilgan suv qo`shiladi. Tayyorlangan damlama salqin joylarda 2 sutkalik muhlat bilan saqlanadi.

Rp: Ynf herbae Millefolii ex 15,0 - 200 ml

D. S. Milklardan qon ketganida va boshqa yallig`lanish bilan kechadigan kasalliklarda kuniga 3 - 4 mahal ovqatlanishdan so`ng og`iz bo`shlig`i chayiladi.

Rp: Extr. Millefolii fluidi —30 ml.

D.S. 1 choy qoshig`ini 1 stakan qaynatilgan iliq suvga solib og`iz chayiladi.

Gulxayri - *Althea officinalis* L. (ruscha - altey lekarstvenniy, dorivor gulxayri, tojikcha - guli xayrii dorugi; qirg`izcha - gulkair, dari gulkan; turkmancha - cherbie).

Gulxayri turlari (dorivor gulxayri, arman gulxayrisi, oq gulxayri) O`zbekiston sharoitida o`sadigan shifobaxsh o`simliklardan bo`lib ular Toshkent, Farg`ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Andijon viloyatlarida hamda Qoraqalpog`iston Muxtor jumhuriyatida tabiiy holda uchraydi. Ular odatda to`qayzorlarda, ko`lmakli joylarda, soylarda, botqoqliklarda, shuningdek begona o`t sifatida madaniy o`simliklar orasida, bog`larda, tog` bag`irlarida o`sadi.

Gulxayri turlari ko`p yillik, bo`yi 1,5 m gacha yetadigan o`simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o`suvchi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan bo`ladi. Poyasining yuqori qismidagi barglari yaxlit, tuxumsimon, o`rta va pastki qismidagilari esa uch yoki besh bo`lakli holda bo`lib, bandi bilan poyada ketma- ket o`rnashgan. O`simlik gullari pushti yoki oq rangli, barg qo`ltig`iga, poya va shoxlari uchiga to`p-to`p bo`lib joylashgan. Mevasi - yassi, yumaloq, serurug` quruq meva.

O`zbekiston sharoitida gulxayri iyun - avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul - sentyabrda pishadi.

Dorivor mahsulot sifatida gulxayrining ildizi, ayrim hollarda bargi ham ishlatiladi. Odatda bargini o`simlik gullaganida yig`ib olinib soya joylarda quritiladi. Ildizi kuzda kavlab yig`ishtiriladida, tuproqdan tozalab (sovuq suv bilan yuvib, ochiq havoda havol qilib quritiladi. Ularni xo`jalik miqyosida maxsus quritish maslamalarida 35-40°S haroratda ham quritib olish mumkin.

Gulxayri ildizi tarkibida 35% ga yaqin shilliq moddalar, 37% gacha kraxmal, 2% asparagin, shuningdek qand, pektin, mineral tuzlar, yog` moddalarn bo`ladi.

Ilmiy tibbiyotda gulxayri preparatlari tashqi dori sifatida kataral angina, o`tkir hamda surunkali faringit, stomatit, gingivit, shuningdek gipergidrozda qo`llaniladi (P. Churalinov, 1979).

Gulxayri turlari ildizidan damlama tayyorlash uchun 10 g maydalangan mahsulot ustiga qaynatib sovutilgan bir stakan suv solib bir soat davomida qoldiriladi. So`ngra davo vositasida suzib olinib yaralangan va yalliglangan og`iz bo`shlig`ini chayish uchun foydalaniladi.

Rp: Ynf. rad Althaeae ex 10,0 - 200 ml D. S. Og`iz bo`shlig`ini chayqash uchun.

**Do`lana- *Crataegus pontica* C.Koch.** (ruscha - boyarishnik, tojikcha - zardan, juj, qizg`izcha - dolono, turkmancha - alyuch, arabcha - zagrur).

Do`lana - ra`noguldoshlarga mansub tikanli daraxt yoki butalar turkumiga kiradi. O`simlikning bo`yi 8-10 m gacha yetishi mumkin. O`simlikning yirik barglari ko`k - yashil, tuksiz, ustki va ostki tomoni siyrak tukli. Barglarining bo`yi va eni deyarli bir xil kattalikda. Asosi keng ponasimon, 5-7 bo`lakchalarga bo`lingan bo`ladi. Do`lana gullari turiga qarab, oq, pushti, aksariyat hollarda qalqonsimon murakkab to`pgullarga joylashgan. Mevalari turiga qarab qizil, sariq, xushbo`y va ta`mli bo`lishi mumkin.

Do`lana iyunda gullaydi, mevalari sentyabrda pishadi. Mevasining diametri 15-18 mm, ayrim do`lana turlari mevasining diametri 3 sm gacha borishi mumkin. Mevaning ikki-uchta danakchasi bo`ladi.

Do`lananing gullari hamda mevalari dorivor mahsulot hisoblanadi. Do`lana mevalari tarkibida 20% qand, 8% yog`, flavonoidlar (giperazid, kvertsetin, viteksin), fitosterinlar, xolin, atsetilxolin, oshlovchi moddalar, karotin, vitamin S, organik kislotalar, krategin moddalari bor. O`zbekistan sharoitida o`sadigan do`lanalarning ayrim turlarida vitamin V1 V2, RR, E larning borligi ham aniqlangan.

Do`lana gullari tarkibida yuqorida ko`rsatib o`tilgan moddalarning ayrimlari qatorida 0,16% ga yaqin efir moylari bo`ladi.

Stomatologiya amaliyotida do`lana preparatlari parodontitni davolash bilan bog`liq bo`lgan umumiy muolajalarda tinchlantiruvchi hamda allergiya holatlarida desensibilizatsiyalovchi omil sifatida tavsiya etiladi. Do`lana preparatlari tanglay murtaklarining yallig`lanishida foydali omil hisoblanadi.

Uy sharoitida do`lana gullaridan quyidagicha damlama tayyorlash, mumkin: 5 g (1 osh qoshiq) maydalangan do`lana gullarini sirlangan idishga solib, ustiga 200 ml (1 stakan) issiq qaynagan suv solinadi, usti

berikilib, qaynab turgan suv «hammom»da 15 minut saqlab turiladi. So`ngra uy haroratida sovitiladi (15 minut) va suzib olinadi. Dokada qolgan mahsulotni siqib, sharbati chiqariladi. Damlamaning umumiy hajmi 200 ml bo`lgunicha qaynatilgan suv qo`shiladi. Damlamadan kuniga 2-3 marta ovqatlanishdan 30 minut oldin yarim stakandan ichiladi.

Rp: Ynf. Grataegi ex 20,0 —200 ml

D. S. Yarim stakandan 3 mahal ovqatlanish- dan oldin ichiladi.

Rp: Extr. Grataegi fiuidi 25 ml

D. S. Yarim stakan suvga 20 — 30 tomchidan solinib kuniga 3 mahal ovqatlanishdan oldin ichiladi.

Rp: T —gae Grataegi 25 ml

O. S. Yarim stakan suvga 40 tomchidan solib, kuniga 3 mahal ovqatlanishdan oldin ichiladi.

Erqalampir - *Armoracia rusticana* Gaertn. (ruscha - xren obiknovenniy, qozoqcha – javjaprak, qirg`izcha - tuyaqoldirmoq).

Erqalampir - butgullilar oilasiga kiruvchi ko`p yillik o`t o`simlik bo`lib, bo`yi 1 m gacha borishi mumkin. Ildiz oldi barglari yirik, cho`ziq tuxumsimon, uzun-qisqa bandlari yordamida poyachada ketma-ket joylashgan bo`ladi. Barglarining aksariyati patsimon kesik. Gullari oq, ko`rimsiz, shingilli dastakchaga to`plangan. Mevasi - qo`zoq, ichidagi har bir uyachada 4 ta urug`i bo`ladi.

Bizning sharoitimizda yerqalampir iyun - iyul oyida gullaydi, odatda urug`lari hosil bo`lmaydi.

Erqalampirning yovvoyisi Ovrupo, Kavkaz, Sibirda uchraydi. Uni ba`zan sernam joylarda, ekin va o`t- o`lanlar orasida uchratish mumkin. O`rta Osiyoda erqalampir ko`plab ekib o`stiriladi.

Erqalampirning ildizi o`tkir ta`mli ziravor hamda dori darmon omili sifatida ishlatiladi.

Erqalampir ildizi tarkibida glikozid singari, mirozin fermeiti, oqsil tarkibli antibiotik modda - lizotsim, fitontsitlar, efir moylari, vitamin S, uglevodlar, alkaloid va boshqa moddalar uchraydi.

Erqalampir ildizi odatda kuz oyida kavlab olinib, qumda saqlanadi.

Stomatologiya amaliyotida erqalampirdan o`rinli foydalanish mumkin, uning tarkibidagi lizotsim moddasi saprofit bakteriyalarni o`ldirish xususiyatiga ega. Erqalampir ildizining sharbatini suv bilan suyultirib (1:10 ga nisbatida) og`iz bo`shlig`i chayiladigan bo`lsa, shilliq pardalarning yallig`lanishi hamda murtak bezlarining yallig`lanishida shifolovchi ta`sir ko`rsatadi,

Erqalampirdan damlama tayyorlash uchun 1 choy qoshiq miqdoridagi qirg`ichdan o`tkazilgan mahsulot ustiga 1 stakan suv quyilib 2 soat mobaynida damlab qo`yiladi. So`ngra suzib olinib, og`iz bo`shlig`i chayiladi.

**Yong`oq - *Juglans regia* L.** (ruscha - orex gretskiy, qozoqcha - jangak, tojikcha - chummok, chormagz, turkmancha - g`oz, forsha - girdagon, arabcha- javiz).

Yong`oq - yong`oqdoshlar oilasiga kiruvchi sershox, baland daraxt bo`lib, uning bo`yi 35 m gacha borishi mumkin. O`simlikning umumiy ko`rinishi sharsimon yoki keng piramida (ehrom) shaklida bo`ladi. Barglari yirik toq patli murakkab, o`rtadagi bo`lagi uzunchoq, tuxumsimon. Daraxt barg chiqarishida gullaydi. Gullari mayda, bir jinsli. Otaliq gullari kuchalaga to`plangan. Onaliq gullari bir yillik shoxchalarda yakka yoki 5 tagacha joylashadi. Aprel va may oyining boshlarida gullaydi, mevasi sentyabr oyining o`rtalarida pisha boshlaydi. Mevasi - danak (yong`oq) li meva. Yong`oq, mevasi yirikligi, po`stining qalinligi, to`liqligi, mag`zi tarkibida yog`ning ko`p yoki kamligi, pishish davrining har xilligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Yong`oq tabiiy, yovvoyi holda Kichik Osiyo, Kavkaz, O`rta Osiyo, Eron, Afg`oniston tog`larida o`sadi. Yong`oq hozirda jahonning ko`pgina mamlakatlarida madaniy ravishda o`stirilmoqda.

Yong`oq daraxti - po`sti, barglari, mevasining mag`zi dorivor mahsulotlar hisoblanadi.

Yong`oqning tarkibida 66,9-82,8% yog`, 21% oqsil, 7% atrofida uglevodlar, karotin, vitaminlardan S, E, R, V guruhi, temir va kobalt tuzlari bo`ladi.

Yong`oqning ko`k qobig`ida 25%, bargida 12% tanin moddasi hamda 0,1 % gacha efir moyi mavjud. Barglarida yuglon, tez oksidlanadigan gidroyuglon, flavonoid giperozid, glikozidlardan kvertsetin, kempferol, 4-5% vitamin S, shuningdek vitamin R, V1 33% karotin, efir moylari, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yuglon - bakteritsid xususiyatga ega.

Yong`oqning yashil meva qobig`ida (po`stida) 3% ga qadar vitamin S, 25% oshlovchi moddalar va gidroyuglonlarni saqlaydi.

Yong`oqdan tayyorlanadigan dorivor omillar tashqi muolaja sifatida simob ta`sirida hosil bo`ladigan yaralarni davolashda, milklar bo`shashib ketganida tavsiya etiladi.

Yong`oqning barglari, g`o`ra mevasi asosida tayyorlanadigan qaynatmalar S gipovitaminozida, milklarning qonashida, gemmorragik diatezlarda (og`iz bo`shlig`i chayqaladi, milklarga yopishtiriladi) tavsiya etiladi. Yong`oq bargi damlamasi murtak bezlarining yallig`lanishida (angina) va gingivitlarda og`iz bo`shlig`i chayiladigan bo`lsa, ijobiy ta`sirini ko`rsatadi.

Yong`oqning ko`k qobig`laridan tayyorlanadigan moyli yoki spirtli eritmalar (yuglon) parodontit kasalligida milk «cho`ntaklari» ga ishlov berishda ishlatiladi. Yuglonning funktsidlik xususiyati bo`lganligi tufayli zamburug`li xeylitda foydalaniladi.

Uy sharoitida yong`oqdan damlama tayyorlash uchun quritilgan va kukunlashtirilgan yong`oq bargidan 1 choy qoshiq olib 1 stakan qaynoq suv bilan damlab qo`yiladi. Damlama soviganidan so`ng, doka vositasida suziladi-da, sharbati ajratib olinadi va kuniga 3- 4 mahal 1 osh qoshiqdan ichiriladi. Damlama bilan og`iz chayqalishi mumkin.

Moyli damlama tayyorlash maqsadida, yong`oqning yangi barglaridan 50-80 g olib (maydalangan), 300 g qizdirilib sovutilgan kungaboqar moyi bilan aralashtiriladi va uy haroratida 20 kun mobaynida damlab qo`yiladi (R. M. Seredin, S. D. Sokolov, 1973).

Yong`oq daraxtining barglarini dori-darmon mahsuloti sifatida tayyorlash uchun, o`simlik barglari ayni gullagan davrida teriladi va quyosh nuridan pana bo`lgan joylarda quritiladi.

**Zig`ir-*Linum humile* Mill.** (ruscha -len kudryash, qozoqcha - zig`ir, tojikcha- zagir).

Zig`ir - zig`irdoshlarga mansub bir yillik va ko`p yillik o`tsimon (ba`zan butasimon) o`simliklar turkumiga kiradi. Ilmiy manbalarda zig`irning 300 ga yaqin turi qayd etiladi. Ular barcha qit`alarning subtropik va o`rta iqlimlarida uchraydi. Shulardan bir necha yovvoyi turi mamlakatimizda ham o`sadi. Zig`ir xalq xo`jaligida alohida o`rin tutib, ularning ba`zilaridan moyli va tolali o`simlik sifatida foydalaniladi.

O`zbekiston sharoitida o`stiriladigan zig`irning moyli turining bo`yi 30-70 sm gacha yetadigan o`t o`simlik bo`lib, poyasi tik o`suvchi, tsiliidrsimon, shoxlangan. Bargi lantsetsimon yoki chiziqsimon, o`tkir uchli bo`lib, poya va shoxlarida bandsiz ketma-ket joylashgan. Gullari zangori rangli, poya va shoxlari uchida bittadan o`rnashgan. O`simlik aprel-may oylarida gullab, iyun - iyul oylarida pishib etiladi. Urug`lari yapasqi bo`lib, 10 tadan ko`sakchaga joylashgan.

Zig`ir urug`lari tarkibida 30-42% turish jarayonida qurib qoladigan yog`, karotin, linamarin glikozidi, shilliq, oqsil va boshqa moddalar

mavjud. Zig`ir moylari tarkibida linolen, linolev, olein, palmitin, stearin kislotalarining glideridlari kiradi. Urug`lari qobig`ida yuqori molekulali birikmalar bo`lib, ular gidrolizlanganida linokafein, likotsi- namaringa parchalanadi.

Stomatologiya amaliyotida zig`ir moyi yallig`lanishga qarshi, o`rab oluvchi vosita sifatida foydalaniladi, u jarohatlarning tuzalishiga omilkorlik qiladi, og`iz bo`shlig`idagi shilliq qavatlarning et olishiga yordam beradi.

Zig`ir moyi qotor, qavishqoq parda (elastik plyonka) hosil qilish qobiliyati tufayli iarodont kasalligini davolashda tez qotuvchi boglama (povyazka) tayyorlashda foydalaniladi.

Rp: Dec. Seminis Lini ex 10,0 — 300,0

D. S. Kuniga 3 — 4 mahal og`nz bo`shlig`ini chayqash uchun.

Igir - *Acorus calamus* L. (ruscha-air bolotniy: qozoqcha - aidiz, forsha - susizard, arabcha udilvan, vaj).

Igir - igirdoshlar (kuchaladoshlar - Arasea) oilasiga mapsub ko`p yillik o`t-o`simlik bo`lib, bo`yi 1 m gacha boradi. Ildizpoyasi - yo`g`on, shoxlangan va ko`p ildizdan tashkil topgan bo`ladi. Gul o`qi - yashil, tik o`suvchi, shoxlanmagan, uch qirrali, bargsiz, bir tomoni tarnovsimon, ikkinchi tomoni esa o`tkir qirrali, uzunlign 60-120 sm gacha boradi. Gullari sariq, so`taga to`plangan. Mevasi - cho`zinchoq, ko`p urug`li, qizil rangli to`q meva. O`simlik may oyining oxirlaridan boshlab iyungacha gullaydi.

Osiyo qit`asi igirning vatani hisoblanadi. Zarafshon vodiysida, Samarqand atrofi, Qorasuv va Afrosiyob bo`ylarida, Xorazm viloyatidagi Daryo, ko`l bo`ylarida, shuningdek ko`lmak suvlarda va botqoqlik yerlarda o`sadi.

Ildizpoyasi dorivor mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida efir moylari, akorin, achchiq glyukozid qatron, yelim, 25% gacha kraxmal,

fitontsidlar, alkaloid kalamini, oshlovchi moddalar bor. Igirdagi efir moylarining tarkibida 73% ga qadar kristal holida azoron, azarilaldegid, seskviterpen kalamini, evgenol, kamfora va boshqa moddalar uchraydi.

Yallig'lanishga qarshi bo'lgan xususiyati, og'riqsizlantiruvchi hamda antiseptik ta'siri tufayli, igir preparatlari glossit, gingivit, parodontit, og'iz shilliq pardalarining yallig'lanishi jarayonlarida, alzeolitlarda tavsiya etiladi.

Og'izni chayqash uchun igir ildizpoyasi asosida tayyorlanadigan damlamadan foydalaniladi. Buning uchun 1 choy qoshiq miqdoridagi maydalangan ildizga 1 stakan qaynoq suv olinadi.

Rp: Ynf. rhiz Calami 15,0- 100,0

D. S. Og'iz bo'shlig'ini chanqash uchun.

Karam - *Brassica oleracea* L. (ruscha-kapusta ogorodnaya (belokochannaya): sabzavot karam, turkmancha - bakja kerem).

Karam - butguldoshlar oilasiga kiruvchi bir yillik va ikki yillik sabzavot o'simliklar guruhiga kiradi. Odatda karamning oq bosh karam, rangli karam, savoy karami, Bryussel karami, Xitoy karami, sholg'om karam, toshkaram, bargli karam kabi turlari mavjud. Bular orasida oq bosh karam keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida ko'plab sabzavot sifatida o'stiriladi.

Oq bosh karam ikki yillik, kulrang-yashil o't o'simlik bo'lib, barglari katta, etli pastki barglar bandli, yuqorisidagisi bandsiz. O'simlik birinchi yili poyasi qisqa bo'lib, ildizoldi barglarni hosil qiladi. Ular bir-biriga zich joylashib dumaloq karam o'raydi. Ikkinchi yili poyasi o'sib chiqadi.

O'simlikning gullari och sariq rangli shingil hosil qiladi. To'rt toj bargli. Mevasi - qo'zoq, pishganida ochilib ketadi. Urug'lari sharsimon, diametri 2 mm keladi.

Karam sabzavot sifatida turli taomlar, salatlar, konservalar tayyorlashda foydalaniladi. Shuningdek karam bir qator xastaliklar davosi sifatida ishlatiladi.

Karam barglari tarkibida 2,6-5,7% miqdorda qand, 1,1-2,3% oqsil, vitamin S (70mg), V, V2, V6 RR, karotin, pantotei kislotasi, shuningdek kaliy (185- 375 mg, natriy 13 mg gacha), kaltsiy (46 mg), magniy 13 mg gacha), fosfor (78 mg gacha) tuzlarini, fermentlar hamda aminokislotalarni saqlaydi. Karamning sarhil barglari tarkibida oltingugurt saqlovchi glikozidlar ham uchraydi.

Karam stomatologiya amaliyotida yallnglanishga qarshi og`riqsizlantiruvchi hamda modda almashnnuvini uygunlashtiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Parodontit, gingivit va boshqa yalliglanish bilan kechadigan kasalliklarda nordonlashtirilgan karam sharbati bilan og`iz chayilishi yohud nordon karamni chaynalishi tavsiya etiladi.

**Na`matak - *Rosa canina* L.** (mahalliy, nomlari: o`zbekcha - xorgul, oqxorgul, itburun, taqmagul, itmurut, ruscha - shipovnik, roza sobachiy, tojikcha - xorgul, xorguli safid, ra`no, gulixori, qozoqcha - itmurun, turkmancha - xamircha, qirg`izcha - it murun, arabcha — dliq, forsha - hulhul)

Na`matak turlari butasimon o`simlik bo`lib, ayrimlarining bo`yi 6 m gacha borishi mumkin. Poyasi egiluvchan, tikanli, yaltiroq qo`ng`ir qizil yosh novdalari bir oz yashil yoki qo`ngir-yashil ranglidir. Barglari toq patli tuxumsimon va arrasimon qirrali. Qo`shimcha barglari bilan birlashib ketgan ham bo`lishi mumkin. O`simlik gullari yirik yakka yoki 2 tadan shoxchalarga o`rnashgan. Gultoji oq, qizil, pushti, to`q qizil, sariq rangli bo`lishi mumkin. Mevasi - gul o`rnidan tarkib topuvchi shirador soxta meva.

O`zbekiston sharoitida na`matak turlari asosan may oylaridan boshlab butun yoz davomida gullaydi, mevasi esa iyul oylaridan to kech

kuzgacha pishib yetiladi. Na`matak mevalari turlariga qarab og`irligi, rangi va katta-kichikligi, novda po`stlog`ining ko`rinishi, tikondorligi bilan farqlanadi.

Na`matak mevalari tarkibida ko`p miqdorda vitamin S (4-8% ba`zan 18% gacha boradi), R, K, V guruhi, karotinlar bilan bir qatorda organik kislotalar (olma kislotasi- 1,8-2% gacha, limon kislotasi 2% atrofida) pektin va oshlovchi moddalar, likopin va riboksantin, shuningdek kaliy, temir, marganets, fosfor, kaltsiy, magniy tuzlari mavjud. Meva urug`larida vitamin E bor.

Stomatologiya amaliyotida na`matak preparatlari lavsha (zangila) kasalligida, vitaminlar yetishmasligi bilan bog`liq asoratli kasalliklarda, shuningdek na`matak moyi mahalliy ishlatish bilan milk kasalliklari, og`iz bo`shlig`ining shilliq pardalarining ozorlanishida foydalaniladi.

Uy sharotida na`matak mevalaridan qaynatma tayyorlash uchun og`zi yopiladigan idishga 2 stakan suv quyiladi va bir osh qoshiq maydalangan (yong`oqchalaridan xolos qilingan) mevalardan solinib, 10 minut davomida qaynatiladi, so`ngra bir sutka davomida qo`yib qo`yiladi. Qaynatma doka vositasida suzilgach, unga biroz shakar qo`shib shira beriladi. Qaynatmadan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin yarim stakandan ichiladi.

Tirnoqgul-*Calendula officinalis* L. (qo`shtirnoq, ruscha - kalendula nogotki lekarstvennie, turkmancha dirnaklija)

Tirnoqgul - murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi, bo`yi 60 sm gacha yetadigan, bir yillik xushmanzara va dorivor o`simlik, tukli shoxlangan poyachalarning yuqori qismidagi barglari tuxumsimon yoki nashtarsimon bo`lib, ular poyaga bandsiz o`rnashgan. Gullari sariq-tillarang yoki to`q sariq bo`lib o`simlikning poya va shoxlari uchida yakka-yakka holda joylashgan, baxmal tuklar quyosh nuri tushgan paytlarda yopishqoq xususiyatni kasb etadi. Mevasi pistachalar, qushning

tirnog`iga o`xshab ichkari tomonga qayrilgan bo`ladi, shu boisdan ham uni ba`zan qushtirnoq deb ataydilar. Tirnoqgul urug`lari boshqa murakkabguldoshlardan, pistalardan iboratligi bilan ajralib turadi.

Tirnoqgul yovvoyi holda Janubiy Ovrupo, Old va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlarida o`sadi. Uni juda qadim zamonlardan beri madaniy holda, manzara kashf etuvchi gul - chechak sifatida o`stirib keladilar.

Tirnoqgulning dorivor mahsuloti - gulsavatchalari hisoblanadi. Mahsulot odatda tirnoqgul gullab, uning tilsimon gulbarglari gorizontal qiyofani olganida, uning gulsavatchalari asosidan qirqib olinadi-da, havo erkinligi bo`lgan pana joylarda yupqa qavatlab quritib olinadi.

Tirnoqgulning gulsavatchalari tarkibida 17% ga yaqin kalenden deb ataluvchi glikozid bo`lmagan modda, 3% ga yaqin karotin, organik kislotalar (salitsilat, olma), fitontsidlar, alkaloidlar, efir moyi, qatron, azot saqlovchi shilliq, albumin, sanoninlar, oshlovchi, bo`yoq va boshqa moddalar mavjud.

Stomatologiya amaliyotida kataral hamda yarali gingivitlarda, stomatitlarda, parodontitda, bolalarning og`zi yellanganida (molochnitsa), lab burchaklarining yorilishi, bichilishida, vitamin S yetishmovchiligida foydalaniladi. Tirnoqgul nastoykasi (1 choy qoshiq nastoyka 2 stakan suvga aralashtirilganda) bilan og`iz bo`shlig`i, tish-milk «cho`ntaklari», shuningdek tishdagi chiqit narsalarni olib, tozalashdan oldin hamda keyin yuviladi. Aftozli va yarali stomatitlarda tirnoqgulning zaytun moyidagi damlamasi (1:10 nisbatida) ozorlangan joylarga ovqatlanishdan so`ng surtilishi (kuniga 3 mahal) tavsiya etiladi.

Tirnoqguldan uy sharoitida quyidagicha dorivor damlama tayyorlanadi: 2 stakan qaynoq suvga tirnoqguldan 2 choy qoshiq miqdorida solinib, 15 minut davomida damlab qo`yiladi. So`ngra damlama doka vositasida suziladi. Damlamadan kuniga 4 mahal yarim

stakandan ichiladi. Yoki 400 g qaynoq suvga 20 g maydalangan o`simlik gulidan solib, 10 minut davomida qaynatiladi. Qaynatma sovigach, suzib olinadi. Undan kuniga 1 osh qoshiqdan 3 mahal ichiladi.

Rp: Ynf flor Cajendulae ex 10,0 — 100 ml

D. S. Og`iz bo`shlig`i kuniga 3 — 4 mahal ovqatlanishdan so`ng chayiladi.

Rp: Calendulae 20 ml Lanolini 100,0 M. funa

D. S. Og`izdagi yara va aftlarga surtiladi.

Tuxumak – *Sophora japonica* L. (yapon soforasi, ruscha - safora yaponskaya)

Tuxumak - dukkakdoshlar oilasiga mansub bo`lib, bo`yi 20 m ga boradigan, shox-shabbasi keng va yumaloq shakldagi yirik daraxt. Vatani Xitoy va Yaponiya.

Ko`p mamlakatlarda keng miqyosda ekiladi. O`zbekistonning yirik shaharlarida manzara kashf etuvchi daraxt sifatida ko`cha yoqalari, hiyobonlar va oromgoh joylarda, anhor va ariq bo`ylarida o`stiriladi. O`simlik iyun-iyulda gullab, avgust - sentyabrda meva tugadi va pishadi. Dukkaklari 10 sm atrofida tasbehsimon bo`lib, ochilib ketmaydi. Mevalari qora bo`ladi.

O`simlikning nafaqat gul g`unchalari va mevalari ba`zan barglari ham dorivor mahsulot hisoblanadi.

Tuxumakning ochilmagan gul g`unchalari tarkibida 30% ga qadar rutin moddasi mavjud. Shu boisdan ham tuxumak rutin olishda asosiy manbai bo`lib xizmat qiladi. Mevasida flavonoidlar, vitamin V, S, buyoq moddalari bo`ladi.

Stomatologiya amaliyotida tuxumak preparatlari kataral gingivit, stomatitda, parodontitda og`iz bo`shlig`i shilliq pardalarining yallig`lanishida, gemorragik diatezda davolash uchun qo`llaniladi.

Uy sharoitida tuxumak mevalaridan ham nastoyka tayyorlash mumkin. Buning uchun 10 g miqdorda tuxumakning maydalangan mevasi 90 g aroqqa (mabodo tortib olishni imkoniyati bo`lmasa, bir-ikki osh qoshiq maydalangan meva yarim litr aroqqa) solinib, 10 kun davomida iliq joyda qoldirilib, vaqti-vaqti bilan chayqatib turiladi. Tindirmadan kuniga 30 tomchidan 3 mahal ovqatdan oldin ichiladi.

Rp: Sophorae japonicae 100 ml

D. S. 20 -40 tomchidai 3 mahal ichiladi. Nastoykani suv bilan 1:10 nisbatida suyultirilib og`iz chayish va applikatsiya qilish uchun foydalaniladi.

Yalpiz - *Mentha arvensis* L. (ruscha-myata perechnaya; qozoqcha-jalbus; tojikcha - zulba, xulba, pudina; turkmancha - narpiz; arabcha - pudinaj).

Yalpiz turlari - labguldoshlar oilasiga mansub ko`p yillik o`t o`simlik bo`lib, poyasi to`rt qirrali, tik o`suvchi, tuklar bilan qoplangan. O`simlik barglari nashtarsimon, ellipsimon, yoki qisqa bandi bilan poyachalarda qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, poya uchida boshhoqsimon yoki halqasimon to`pgulni tashkil qiladi. Mevasi g`iloflar ichida saqlanadigan bir urug`li to`rtta yong`oqcha.

Yalpiz nomi bilan yuritiladigan giyohlarning turi juda ko`p. Markaziy Osiyo sharoitida osiyo yalpizi, suv yalpizi, qora yalpiz kabilar, shular bilan birga madaniy holda o`stiriladigan o`tkir yalpizlar mavjud.

Odatda yalpiz tabiiy xolda namli joylarda, o`tloqlarda, ariq, jilg`a bo`ylarnda o`sadi.

Jaydari yalpizlar juda qadim zamonlardan beri oshko`k, ziravor sifatida, shuningdek bir qator kasalliklar davosi bo`lib xizmat qilib keladi.

Yalpiz tarkibida turiga qarab har xil miqdorda efir moylari (mentol, menton, pinen, flandren, tseniol, kezliol, jasmin), organik kislotalar (sirka, valerian kislotasi), flavonoidlar, karotin, ramnoza, glyukoza, rutin,

vitamin S, gesperidin, betain, mineral tuzlar va yana boshqa moddalarni saqlaydi.

Yalpiz preparatlari og`riq qoldirish xususiyatiga ega bo`lib, antiseptik ta`siri mavjudligi tufayli stomatologiya amaliyotida ishlatiladi.

O`tkir ta`mli yalpizdan sanoat miqyosida olinadigan moy (ol *Menthae piperitae*) o`z tarkibida 50% ga yaqin mentol saqlaydi. Shaffof, och-sarg`ish rangga ega bo`lgan yalpiz isli bu modda tish tozalash kukunlari, pastalari, eleksirlari tarkibiga kiradi. Shuningdek yalpiz moyi og`izning noxush isini ketkazuvchi dezodorant eritmalarda foydalaniladi.

Rp: *Menthae piperitae* 3,0 *Spiritus althilicu* 70% ad 20,0

M. D. S. 1 stakan suvga 20 tomchi tomizilib og`iz bo`shlig`i chayiladi.

Rp: *Menthae piperitae* 50 ml

D. S. 1 choy qoshig`i 1 stakan suvga solinib og`iz bo`shlig`i chayiladi.

Yalpiz barglaridan tayyorlangan damlama og`riqsizlantiruvchi sifatida, shuningdek nevrалgiyada, tish og`rig`ida foydalaniladi, tashqi muolaja sifatida antiseptik xususiyati uchun stomatitlarda va yuqori nafas yo`llarining shamollashida tavsiya etiladi.

Rp: *Menthae piperitae* 100,0

D. S. 2 choy qoshiq maydalangan barglar 1 stakan qaynoq suvda 20 minut damlanadi, suzilgach og`iz bo`shlig`i chayiladi.

Qoraqat- *Ribes nigrum* L. (ruscha - smorodina chernaya, qozoqcha - taskaragat, karagat).

Qoraqat - qoraqatdoshlar oilasiga kiruvchi o`simlik bo`lib, bo`yi 1 - 1,5 m keladi. Barglari oddiy 3-4 bo`lakli poyada bandi bilan ketma-ket o`rnashgan. Gullari shingil, mayda, ikki uyli. Mevasi turiga karab, qora, qizil tillorang bo`lishi mumkin. Mevalar xushbo`y, yumaloq, ko`purug`li meva.

Qoraqatning 150 turi qayd etilgan. O`zbekistonda qoraqatning 5 turi ma`lum bo`lib, shundan 2 turi tabiiy holda uchraydi.

Qoraqat tabiiy holda namli joylarda, oqar suv bo`ylarida, o`tloqlarda uchrashi mumkin. O`simlik may-iyun oyida gullab, mevalari iyun-avgustda yetiladi, ularning vazni 4 g gacha borishi mumkin.

Qoraqatning mevalari, barglari hamda g`unchalari dorivorligi bilan ma`lum. Qoraqat mevalari tarkibida 4,5-12,8% qand moddalari, 2-4,5% organik kislotalar (olma, limon, qahrabo va boshqa), mineral tuzlar, jumladan kaliy (365 mg), temir (0,9 mg), vitaminlardan S (80-400 mg), R, V2, V6) E, K, flavonoidlar bor, marganets, rux, molibden, kobalt, mis, yod kabi elementlar jo bo`lgan.

Qoraqatning barglarida salmoqli miqdorda vitamin S va efir moylari mavjud.

Zamonaviy tibbiyotda qoraqat o`simligining dorivor preparatlari (damlama, qaynatma) lavsha (singa) kasalligida va boshqa avitaminoz bilan bog`liq xastaliklarda, og`ir dardni boshidan kechirgan kishilarga darmonbaxsh omil sifatida tavsiya etiladi.

Qoraqat mevalari va barglari anemiya, skorbut kabi kasalliklarda foydalaniladi. Qoraqat mevalari asosida tayyorlanadigan yig`ma-choylar ham mavjud.

Qoraqat barglari asosida kuyidagicha damlama tayyorlanadi: 3-4 osh qoshiq qoraqat barglarini 1 stakan qaynoq suv bilan 1-2 soat mobaynida damlab qo`yiladi, suzib olingach, sharbatidan kuniga 2-3 marta yarim stakandan ichiladi.

Rp: Frustum Ribis nigri 200,0

D. S. 2 osh qoshiq meva 1 stakan qaynoq suv bilan 1-2 soat damlangach suzilib, 1/3 stakandan kuniga 3 - 4 mahal ichiladi.

Rp: Dec fruct Ribis nigri ex 50,0 - 200,0

D. S. 1/3 stakandan kuniga 3 - 4 marta ichiladi.

2.3. Tish og`rig`ida xonaki muolajalar va tavsiya etiladigan yig`ma choylar

Favqulodda tish simillab yoki lo`qillab og`rib qoladigan bo`lsa, yerqalampir ildizi qirg`ichdan o`tkazilib, bo`tqa xoliga keltiriladi-da, bozillatma (kompres) sifatida yoki surtish yo`li bilan foydalaniladi.

* * *

Marmarak, qirqbo`g`in, g`ozpanja, bo`ymodaron kabi o`tlarning qaynatmasi bilan iliq holida og`iz chayqaladi, iloji boricha qaynatmani og`riyotgan tish atrofida tutib turishga harakat qilinmog`i darkor. Og`iz bo`shlig`ida sovugan qaynatma 30 minut ichida 5 marta qadar almashtirilishi lozim.

* * *

Sholg`om ildizmevasini qirg`ichdan o`tkazilib 1 stakan suv bilan 15 minut davomida qaynatiladi. Suzib olingach, sharbati bilan og`iz bo`shlig`i chayiladigan bo`lsa, tish og`rig`iga ma`lum darajada taskinlik beradi.

* * *

Anjir mevasi asosida qaynatma tayyorlanib, og`iz bo`shlig`ida tutib turiladigan bo`lsa milklarning pilla boylashiga (flyus) barham beradi.

* * *

Lo`qillab og`riyotgan tishga to`g`nog`ich boshicha keladigan kamfora qo`yilib, uni chaynab yumshatilgan qog`ozcha bilan mustahkamlatib qo`yilsa, simillab og`riyotgan tish og`rig`i qoladi.

* * *

Jag` tarafdagi tish zirqirab og`riyotgan bo`lsa bargizub quloqqa qo`yib turiladi. Shunda og`riq yarim soat ichida yo`qoladi.

* * *

Tish og`riyotgan joy bilan lunj oralig`iga bir bo`lakcha cho`chqa yog`i qo`yiladigan bo`lsa, 15-20 minut o`tganidan keyin og`riq hiyla uzoq vaqtga qadar yo`qoladi.

Ayrim stomatologik kasalliklarda tavsiya etiladigan yig`ma choylar

Parodontozda:

1. Buldurg`un ildizi (Korni ejeviki sizoy) 25,0

Bo`tako`z gullari (Tsvetki vasilka sinego) 20,0

Yig`ma choydan 2 osh qoshiq olib 500 ml suv bilan 5 minut davomida qaynatilib, suziladi. Mazkur damlama sharbati bilan og`iz kuniga bir necha marta chayiladi.

2. Igir ildizi (Korni aira bolotnogo) 15,0

Uchbarg barglari (Listya vaxti trexlistnoy) 15,0

Yig`ma choydan 1 osh qoshiq miqdorida olib, uning ustiga 1 stakan qaynoq suv solinadida, 20 minut davomida damlab qo`yiladi. Sharbati bilan og`iz bo`shlig`i kuniga bir necha bor chayiladi.

3. Qoraqat mevalari (Plodi smorodini chernoy) 20,0 Gazandao`t barglari (Listya krapivi dvudomnoy) 20,0

Oddiy chetan mevalari (Plodi ryabini obiknovennoy) 10,0

Yig`ma choydan 2 osh qoshiq olib uning ustiga 1 stakan qaynoq suv quyiladida, 30 minut davomida damlanadi. Damlamadan iliq holida 1/2 stakandan kuniga 3 marta ovqatlanishdan keyin ichiladi.

4. Qoraqat mevalari (Plodi smorodini chernoy) 100,0

Na`matak mevalari (Plodi shipovnika) 100,0

Balx tuti (oq tut) mevalari (Plodi tutovnika) 50,0

Mevalar yig`masidan 2 osh qoshiq miqdorida olib, ustiga 1 stakandan qaynoq suv quyilib, suv hammomida 30 minut davomida qizdiriladi va 10 minut sovutiladi. Kamayib qolgan suv hajmi qaynagan suv bilan dastlabki me`yorgacha yetkaziladi. Damlamadan 1/2 stakandan kuniga 2 marta ovqatdan keyin iliq holida ichiladi.

Stomatitda:

1. Dorixona moychechagi (Tsvetki romashki aptechnoy) 30,0

Jo`ka gullari (Tsvetki lipi serdtsevidnoy) 20,0

Eman po`stloqlari (Kora duba obiknovennogo) 20,0

Anor po`stlog`i (Kojura ploda granata) 20,0

Anor mevasining po`stlog`i (Kojura ploda granata) 20,0

Yig`madan 1 osh qoshiq olib, uning ustiga 1 stakan qaynoq suv quyiladi va 30 minut davomida damlab qo`yiladi. So`ngra suzilib sharbati bilan kuniga bir necha marta (aftoz: stamatitida) chayib turiladi.

2. Na`matak mevalari (Plodi shipovnika korichnogo) 25,0

Dorivor marmarak barglari (Listya shalfeya lekarstvennogo) 15,0

Tog`rayhon o`ti (Trava dushitsi obiknovennoy) 10,0

Tirnoqgul gullari (Tsvetki kalenduli) 10,0

Yig`madan 2 osh qoshiq olib, uning ustiga 1 stakan qaynoq suv quyilib, 30 minut davomida damlangach, suziladi. Damlama bilan og`iz kuniga bir necha bor (aftoz stomatitida) chayiladi.

3. Dorivor marmarak barglari (Listya shalfeya lekarstvennogo) 25,0

Oddiy eman po`stlog`i (Kora duba obiknovennogo) 25,0

Tirnoqgul gullari (Tsvetki kalenduli) 25,0

Dorivor moychechak gullari (Tsvetki romanki aptechnoy) 10,0

Anor mevasi po`stlog`i (Kojura ploda granata) 20,0

Yantoq ildizi (Korni verblyujey kolyuchki) 50,0

Yig`madan 2 osh qoshiq olib, 500 ml suvga solinadi da, 10 minut davomida qaynatilib, 2 soat qoldiriladi. Suzilib damlama bilan og`nz kuniga birnecha bor (aftozli stomatitda hamda azotli o`g`itlar bilan bevosita ishlanganda) chayiladi.

Gingivitda:

1. Eman po`stlog`i (Kora duba obiknovennogo) 30,0

Tog`rayhon o`ti (trava dushitsi obiknovennogo) 20,0

Dorivor gulxayri ildizi (Korni alteya lekarstvennogo) 5,0

Dorivor marmarak barglari (Listya shalfeya lekarstvennogo) 5,0

Yig`ma choydan 2 osh qoshiq olib, uning ustiga 1 stakan qaynoq suv solinib, 30 minut damlab qo`yiladi. Suzib olingach, damlama bilan kuniga bir necha marta (kataral gingivitda) og`iz chayiladi.

2. O`tkir (qalampir) yalpiz barglari (Listya myati perechnoy) 20,0

Bo`ymadoron o`ti (trava tisyachelistnika) 20,0

Uchbarg barglari (Listya vaxti trexlistnoy) 10,0

Yig`madan 1 osh qoshiq olib, ustiga 1 stakan qaynoq suv solingach, 30 minut davomida damlanadi. Suzib olinib, damlama bilan og`iz kuniga bir necha marta (yarali-nekrotik gingivitda) chayiladi.

3. Dorivor marmarak barglari (Listya shalfeya lekarstvennogo) 20,0

Arpabodiyon mevalari (Plodi anisa obiknovennogo) 20,0

Qarag`ay kurtaqlari (Pochki sosni obiknovennoy) 20,0

Sigirquyruq gullari (Tsvetki korovyaka skipetrovidnogo) 10,0

O`rmon malvasining gullari (Tsvetki malvi lesnoy) 30,0

Yig`madan 1 osh qoshiq olib, ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladida, 30 minut davomida damlanadi. Suzib olingach, damlama bilan og`iz kuniga bir necha marta (kataral gingivitda) chayiladi.

Eslatma: yuqorida keltirib o`tilgan davolovchi omillarning barchasi mutaxassis olimlar (manbalar) tomonidan taviya etilgan. Mabodo dorivor o`simliklarning yig`ma choy tarkibida birortasi bo`lmasa, usiz ham shifobaxsh damlama tayyorlash mumkin ekanligi eslatib o`tilgan.

III. BOB. OLINGAN MA`LUMOTLARNI O`QUV JARAYONIDA FOYDALANISH

Yurtboshimiz takidlab o`tganlaridek “Biz farzandlarimizni nafaqat jismoniy va ma`naviy sog`lom qilib tarbiyalashimiz balki ularning intellektual bilimlarga ega bo`lgan, uyg`un rivojlangan insonlar qilib, XXI asr talablariga to`liq javob bera oladigan barkamol avlod bo`lib rivojlanishiga zarur imkoniyat yaratib berishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ymog`imiz darkor”.

Pedagogik texnologiyalar tarixiga nazar solar ekanmiz uzoq o`tmishimizda ham pedagogik texnologiyalar boshqacha ko`rinishda bo`lganligini ko`rishimiz mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida Prezident I.A. Karimov takidladi, “Ta`limning yangi modeli” jamiyatda mustaqil fikrlovchi shaxsning shakllanishiga olib keladi. 1997- yilda “Kadrlar tayyorlash” va “Ta`lim to`g`risidagi” qonunlarda biz o`zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo`lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo`lamiz”.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida bo`lgani kabi ta`lim tizimida ham bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va ta`lim to`g`risidagi qonunlarda ta`lim-tarbiya tizimini zamonaiy talablar darajasiga ko`tarish va ta`limning uzluksizligini ta`minlashning asosiy maqsadlari va shart-sharoitlarini belgilab beradi.

Hozirgi rivojlanish bosqichida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirilishga e`tibor yana ham kuchaytirildi, dars mashg`ulotlari sifatini yaxshilash, uni jahon andozalari darajasiga yetkazish asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Bugungi o`quvchi yoshlar zimmasida katta mas`uliyat , ya`ni, yurt taqdiri, vatan kelajagi taqdiri turibdi.

Demak, endigi kadrlar sifati masalasi ko`proq maktabda, akademik litsiy va kasb hunar kollejlarida, oliy ta`lim dargohlarida beriladigan ta`lim

tarbiyaning sifatiga mazmuniga aloqadordir. Shunday ekan darslarda o`qituvchi aktiv faoliyat ko`rsatmasdan, balki o`quvchilar passiv holatdan darsning asosiy ishtirokchisiga aylanishi ya`ni mustaqil ishlashi lozim. Shu sababli o`quvchilarni biologiya faniga bo`lgan qiziqishini ortirish, ularga chuqur va puxta bilim berish borasida turli xil no`anaviy uslublardan, yangi pedagogik informatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o`tish muhim ahamiyatga ega va hozirgi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Yangi usullarni ta`lim jarayoniga joriy etish o`quv jarayonlarining tubdan o`zgarishiga olib kelmoqda. 2005- yil va undan keying yillarda ta`lim muassalarining resurs kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o`quv tarbiya jarayonini yangi o`quv uslubiy mujmualar ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan to`liq ta`minlash rejalashtirilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amaliyotga tadbiq etishning uchunchi yakuniy bosqichi davom etmoqda. Shunday ekan darslarda faqat o'qituvchi aktiv faoliyat ko'rsatmasdan, balki o'quvchilar ham darsning asosiy ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni mustaqil fikirlashi va ishlashi muammolarga aqlan hujum qilishga o'rgatish zarur.

Ma`lumki, ta`lim jarayoni o`quvchilarning bilim olish, ko`nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashini, ijodiy izlanishlarni riojlantrish maqsadiga qaratilgan o`qituchi va o`quvchilarning o`zaro hamkorligi sanaladi va boshqacha aytganda ta`lim mazmunini o`qitish texnologiyasiga asoslangan holda va shu bilan birga o`qitish metodlari yordamida o`zlashtirishga erishishdir.

Texnologiya tushunchasi pedagogika fani, ishlab chiqarish sohalarga nisbatan ancha keng ishlatilib, “ texnologiya “ so`zi yunoncha techne – san`at , logos – mahorat talimot degan mazmunni anglatadi. Olimlarning takidlashicha, bu atama “bola shaxsiga ta`sir ko`rsatish san`ati “ ga etibor qaratilib har bir davrda o`ziga xos zamonaviylik kasb etadi yangilanib takomillashib kelgan. Pedagogik texnologiya atamasini o`qitish, ta`lim berish jarayonidagi pedagogik

mahorat, san`at deb tushunish mumkin. Har qanday faoliyat yo texnologiya yo san`at bo`lishi mumkin. Turli tuman texnologiyalar individual mahorat, jamoa mahoratiga o`z o`rnini bo`shatib bergan. Texnologiya ko`plab kasb egalarning to`plagan mahorati yig`indisi majmui ya`ni jamoa mahoratidir.

Texnologiya yangicha usullar va vositalar tizimi bo`lib ma`lum faoliyatning oldindan belgilangan natijalarni namoyon qiladi, bu iborani ta`lim mezoniga bog`lab izohlamoqchi bo`lsak, darsning miqdor va sifat jihatdan muvaffaqiyatli chiqishini taminlaydi. Texnologik jarayonning yaxshi natija , samara berishini oldindan puxta loyihalashtirish va amalga oshirish , uning mujassamligiga bog`liq.

Texnologiya usullarini dars jarayoniga tadbiq etish muhit, sharoit, ko`nikma va kuzatishlar bilan bog`liq.

Yangi pedagogik texnologiyaga ko`ra talabaning bilim olishdagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yo`li umri davomida kerak bo`lmasligi ham mumkin. Unga shunday narsa berish kerakki, o`sha narsasiz bugun, hozir yashash mumkin bo`lmasin va shu bilganiga doimo uzoq yillardan so`ng ham qayta-qayta murojat qilib hayolan bog`lanib yursin. Darsda shunday muommoli vaziyatlarni yuzaga keltirish o`qituvchining mahoratiga bog`liq.

Pedagogik texnologiya – o`qitish va ta`lim shakillarini optimallashtirish maqsadida o`qitish va bilimlarni o`zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik vositalarni qo`llash, ularning o`zaro ta`sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Metod so`zi muayyan ma`noda maqsadga erishish usulidir. O`qitish metodlari o`qituvchining bilimlarini o`quvchilar ongiga yetkazish va ma`lumotlarni o`quvchilar tomonidan o`zlashtira olish usulidir.

Ta`lim jarayonidan salmoqli o`rin egallagan muammoli “aqliy hujum” dars, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikirlash) darslar muammoli ta`lim texnologiyasiga asoslanadi.

Mazkur darslarning o`ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi. Muammoli ta`lim deb o`qituvchi tamonidan pedagogik ta`sir ko`rsatishning eng muqobil variyanti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda o`quvchilarning bilimlarni o`zlashtirish jarayonida fikirlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo`naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

Muommoli talim jarayonida o`qituvchi rahbarligida muommoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o`quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko`nikma va malakalarni ijodiy o`zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Muommoli talim texnologiyalari o`quvchilarning bilimlarini o`zlashtirish darajalarini orttirish, ko`nikmalarini malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo`llanilib, undan o`quvchi o`quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, malumotlarni umumlashtirib yangi axborot oladi.

Boshqacha aytganda avval o`zlashtirgan bilim va ko`nikmalarni yangi vaziyatlarda qo`llab, bilimlarini chuqurlashtiradi va kengaytiradi. Bilimlarni bunday o`zlashtirish usulini hech bir darslik va ustoz o`rgata olmaydi, faqat o`quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar yechimini topadi. O`quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o`rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko`nikmalarni shakinlantirish va rivojlantirishga olib keladi.

Darsni to`g`ri tashkil etishda asosiy jaobgarlik o`qituchi zimmasiga yuklatilgan bo`ladi. O`qituchi dars jarayonida bir vaqitning o`zida turli xil usullardan foydalanib, mashg`ulotlar o`tkazish orqali o`quvchilarning qiziqishini, o`zlashtirish darajasini va sifat ko`rsatkichlarini oshirishga erishiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib biz quyida “Dorivor o`simliklarning inson hayotidagi ahamiyati va ulardan oqilona foydalanish” mazusini o`qitishda

o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish va fikirlash qobiliyatini rivojlantirish, bilish ehtiyojini orttirish jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan "Aqliy hujum" metodini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz chunki muammoli ta'lim jarayonida o'qituchi rahbarligidagi muammoli vaziyat ujudga keltrilib, mazkur muammo o'quvchilarning mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi. Muammoli ta'lim texnologiyalarida "aqliy hujum" metodidan foydalanganda o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajasini orttirish ko'nikmalarini malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, malumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Muammoli ta'lim texnologiyalarida "aqliy hujum" metodidan darsning hamma qismida foydalanish mumkin misol uchun o'tilgan mavzuni so'rashda, yangi mavzuni tushuntirishda va yangi o'tilgan mavzuni mustahkamlashda "aqliy hujum" metodidan foydalanish mumkin. Muammoli ta'lim texnologiyalarida "aqliy hujum" metodidan foydalanib dars o'tish jarayoni quyidagicha.

Dars mavzusi: "Dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati va ulardan oqilona foydalanish"

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga dorivor o'simliklarning inson hayotida tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari va dorivor o'simlik turlari haqida nazariy ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati va xilma-xilligini tushuntirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ekologik va ahloqiy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarda dorivor o'simliklarning inson hayotidagi amaliy va iqtisodiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega ekanligini o'rgatish darslik ustida mustaqil ishlash

ko'nikmalarini rivojlantirish. Tabiatdagi tabiiy, madaniy va yavvoyi dorivor o'simlik turlarini kuzatish va aniqlashga o'rgatish.

Dars jihozlash: mavzu bo'yicha, plakatlar, slayd, tarqatma materiallar krassvord, didaktik kartochkalar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: muammoli ta'lim texnologiyasi (aqliy hujum metodi).

Muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan "Aqliy hujum" metodidan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Darsning borishi: I. Tashkiliy qism: o'qituvchining kirish nutqi: sinf xonasi tozaligi va o'quvchilarning darsga qatnashishini aniqlash.

II. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish orqali, o'tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifani bajarib kelgan o'quvchilarni baholash. O'tilgan mavzuni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega bo'lib uyga berilgan topshiriqning bajarish holati tahlil qilinadi va tahlil asosida bilimi baholanadi. O'tilgan mavzu bo'yicha O'quvchilar bilimini baholashda o'quvchilar bilan o'qituchi og'zaki savol javob, tarqatma test savollari, krasord, rebus va mavzuga tegishli atamalar zanjirini tuzish orqali uyga azifa so'raladi.

1. Og'zaki saol jaob tarzida so`rashda faol o`quvchilar o`z fikrini ochiq oydin ayta olishadi.

2. Yozma tarqatma test saollari, krasord va rebuslar orqali so`rashda bilimli lekin og`ir tabiatli bilimini oshkoralik tarzida ochiq-oydin ayta olmaydigan uyatchan o'quvchilardir.

O'quvchilar baholanib bo'lgandan so'ng yangi mavzu e`lon qilinadi.

III. Yangi mavzuni o'rganish: o'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirib, o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib yangi mavzu tushuntiriladi.

Yangi mavzu albatta o'tilgan mavzu bilan bog'langan holda va hayotiy hodisalar bilan tushuntiriladi va mavzu o'quvchilarga yozdiriladi.

Hammamizga ma'lumki odam va hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni davolashda hamda shu kasalliklarni oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar deyiladi.

1- rasm



Dorivor shifobaxsh o'simliklar insonlarni davolash bilan birga to'ydiradi, kiyintiradi va oziq-ovqat sifatida ishlatiladi.

Kasallikni davolash hamda uni oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar ajratib olinadi. Buning uchun shu o'simlikning kasalliklarni davolash xususiyatiga ega biologik faol moddalarga boy bo'lgan

qismlaridan, yani bazi o'simliklarni yer osti o'rganlaridan (ildiz, ildizpoya, tugunak yoki piyoz), bazilarining esa yer ustki orginlaridan (barg, gul, meva urug', po'stloq yoki o't o'simliklarning butunlay yerustki qismi – o'ti) foydalaniladi.

Dorivor o'simliklar turlari nabo'tot olamida tabiiy va madaniy holda uchraydi.

Tabiiy dorivor o'simliklardan insonlar shifobaxsh vositalar sifatida foydalanib kelishgan va hozirgi kunda ham ko'pchilik dori- darmonlar tabiiy o'simlik turalidan ishlab chiqarilmoqda. Tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklardan nafaqat insonlar balki hayvonlar ham o'z kasalliklarini davolashda foydalanadilar ular bilan oziqlanib o'zlarini o'zlari davolaydi.

Dorivor o'simliklarning madaniy turlari ham turli maqsadlarda oziq – ovqat, sanoat, meditsina, texnika, xullas xalq xo'jaligining turli sohalarida kishilar ehtiyojini qondirish uchun ekib ko'paytiriladi.

Xalq xo'jaligidagi barcha madaniy o'simliklar turlari yovvoyi o'simliklardan kelib chiqqan.

Dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati juda katta bo'lib, mahalliy sharoitda dori-darmon topilmay qolganda dorivor o'simlikdan foydalanish ancha qulay, samarali va foydalidir.



Dars davomida o'quvchilarning mavzu yuzasidan qay darajada bilimga ega ekanligini bilish uchun ham muammoli savolar tashlansa dars yanada qiziqarli o'tadi. Mana shu muammoli savollarga o'quvchilarning yakka o'zlari "Aqliy hujum" yasaydilar.

Savollar

1. Dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati?
2. Tabiiy va madaniy dorivor o'simlik turlariga qaysi o'simliklar kiradi?
3. Qanday kasalliklarda foydalaniladigan dorivor o'simliklarni bilasiz?
4. Tish kasalliklarida qanday madaniy dorivor o'simliklar turlari qo'llaniladi?
5. O'simliklarning dorivorlik xususiyatlari nimalarga bog'liq?
6. Respublikamizda eng ko'p tarqalgan dorivor o'simlik?
7. Tabiatdagi zaharli o'simliklar ham dorivor bo'lishi mumkinmi?

8. Dorivor o`simliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun qanday chora tadbirlar mavjud?

9. Tabiatda dorivor o`simliklar xilma-xilligi qanday paydo bo`gan?

Dorivor shifobaxsh o`simliklar inson organizmiga foydali tasir qilib boshqa salbiy asorotlar keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda Respublikamizda va kundalik hayotimizda ham dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kundan kun ortib bormoqda.

Dars shu tariqa qiziqarli ilmiy ma`lumotlarga boy holatda davom ettiriladi. O`qituvchi tomonidan yangi mavzu qisqacha yoritib berilgandan keyin o`quvchilarning qay darajada tushunganligini bilish uchun yangi mavzu mustahkamlanadi.

IV. Yangi mavzunu mustahkamlash: yangi mavzuni mustahkamlashda o`qituvchi o`quvchilarni kichik teng sonli guruhlariga ajratadi va guruh sardorini belgilaydi.

Tushuntirgan mavzu yuzasidan muammoli ta`lim texnologiyasi usulini qo`llagan holda muammoli saollar yozilgan kartochkalarni o`qituchi tomonidan o`quvchilarga ya`ni guruhlariga tarqatiladi va e`lon qilinadi. Guruhdagi o`quvchilar shu savollar yuzasidan maslahatlashib, o`z fikrlarini umumlashtiradi. Har bir guruh sardori guruh fikrini bayon etadi.

1 Dorivor o`simliklarning kasalliklarga da`vo bo`lishini ilk bora isbotlagan olim?

- a) Karl Linney
- b) Abu Ali ibn Sino
- d) Gippokrat

2 Dorivor o`simliklarni yetishtirishda nimalarga e`tibor berish lozim?

- a) Tuproq tarkibiga
- b) O`simlik biologiyasiga
- d) O`simliklarning turiga

3 Dorivor va shifobaxsh o'simlik boyliklarini qayta tiklash, asrab avaylash va muhofaza etish uchun qanday chora tadbirlar qilish kerak?

a) O'simliklarni sindrib, ildiz yoki ildizpoyasi, tuganaklari bilan sug'urib olmaslik kerak

b) Dorivor va shifobaxsh o'simliklardan kamroq foydalanish

d) Dorivor va shifobaxsh o'simliklarni sonini ko'proq ekish lozim

4 Ilmiy meditsinada qo'llaniladigan dori-darmonlarning necha % dan ortig'i o'simlik mahsulotlaridan olinadi?

a) 60%

b) 40%

d) 70%

O'qituchi guruhlar bayon etgan fikirlarni umumlashtirish dars yakunida amalga oshirilishini e'lon qiladi va savolga kichik guruhlar sardoridan javob olingandan so'ng ya'na o'qituchi o'quvchilarga avval o'zlashtirgan bilimlari va darslikdan foydalanib quyidagi jadalni to'ldirishni va izohlashni topshiradi ya'na o'quvchilar muammoli savollarga bilim doirasidan kelib chiqqan holda quyidagi jadvalni to'ldirish uchun ham individual yoki guruh bilan birgalikda "aqliy hujum" yasaydi.

2-jadval

Dorivor o'simliklarning kasalliklarda qo'llanilishi

<i>N^o</i>	<i>O'simlikning nomi</i>	<i>Hayotiy shakli</i>	<i>Qo'llaniladigan qismi</i>	<i>Dorivor mahsulot</i>
1.	Janbil			
2.	Bargizub			
3.	Rayhon			

4.	Sedana			
5.	Gulsafsar			
6.	Bo`ymadaron		`	
7.	Momaqaymoq			
8.	Yalpiz			

O`quvchilar bilimini, chaqqonligi va raqobatchanligini bilish uchun o`simliklarning tabiatdagi turlarini aniqlash jadvalini to`ldirish topshiriladi. Bu jadvalni to`ldirish uchun esa yana guruh bilan o`ylashgan holda o`quvchilar “aqliy hujum” yasaydilar.

3- jadval

Dorivor o`simliklarning tabiatda tarqalish turlari

<i>Tabiiy turlar</i>	<i>Madaniy turlar</i>	<i>Kamyob turlar</i>

Guruhlar javoblaridan so`ng, o`qituchi darsni umumiy yakunlaydi. Faol ishtirok etgan guruhlar va guruhdagi o`quvchilar reyting oynasida baholanadi. O`quvchilarga dars daomida olgan baholari e`lon qilinadi.

V. Uyga vazifa berish: dars oxrida o`qituvchi mavzu yuzasidan uyga vazifa beradi va dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati va ulardan

qanday qilib oqilona foydalanishga bo'lishi haqida gazeta, jurnal va internetdan yangi ma'lumotlar olish va test, krassvord tuzib kelishini taklif etadi.

Qisqa qilib aytaganda muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan "Aqliy hujum" metodi orqali o'quvchilarning mantiqiy va erkin fikr yuritish va mustaqil fikirlash, aqliy faoliyat usullarini egallashga, o'zlashtirish darajasini, qiziqishini va darsda faol ishtirok etishiga erishishimiz mumkin.

3-rasm



4-rasm



5 - rasm



XULOSALAR

Malakaviy ish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining tahliliga ko'ra quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

1. Ko'pgina dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi haqida to'plangan ma'lumotlar va ularning farmokologik ta'sirini o'rganish, ko'pchilik tish va og'iz bo'shlig'i kasalliklarining patogenezi, biokimyosi, patomorfologiyasini hisobga olgan holda dorivor o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlardan stomatologiya amaliyotida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.
2. Milk va og'iz bo'shlig'ining shilliq qavati yaxshi so'rish xususiyatiga ega, shu boisdan dorivor o'simliklarni chayqash, yopishtirish, milkka qo'yib qo'yish, tish xaltachasini instillyatsiya qilish (dori modda bilan to'ldirish) tavsiya etiladi.
3. Parodont to'qimalarining va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi turli xil tish kasalliklari (karies (millionlar kasalligi), pulpit, periodontit, jag` periostiti, paradantoz, gangivit, stomatit, glossalgiya, glossit, sachratqi (pemphigus) va dyuring dermatitis, leykoplakiya, og'izning badbo'y hidi va bosh) har xil sabablarga ko'ra, chunonchi jarohatlanish, kuyish, nurlanishdan va shamollash, kelib chiqishi aniqlandi.
4. Tish kasalliklarining «Mahalliy yallig'lanishga qarshi davolash» da dorivor o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar parodont to'qimalariga o'ta faol ta'sir qilishi, regeneratsiya jarayonini yaxshilab, yallig'lanishga va mikroblarga qarshi, qon to'xtatuvchi, intoksikatsiyaga qarshi ta'sir qilish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.
5. O'simlik mahsulotlardan dorivor moddalar tayyorlash, quritish va saqlashda o'simlikning biologik faol moddasi yig'ilgan qisimlari jumladan, bargi, guli, ildizi, poyasi, yer usti va yer osti organlari yig'ilib, quritiladi va maxsus idishlarda saqlanishi o'rganildi.

6. Tish kasalliklarida qo'llaniladigan dorivor o'simliklarning qordosh tillarda nomlari o'rganildi va bundan tashqari dorivor o'simliklardan dorivor mahsulot tayyorlanish yo'llari o'rganildi.
7. Tish og'rig'ida xonaki muolajalar va yig'ma choylarning ahamiyati katta ekanligi o'rganildi va barcha olingan malumotlarni o'quv jarayonida Muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan "Aqliy hujum" metodi yordamida institutimizning 1 kurs talabalariga "Dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati va ulardan oqilona foydalanish" mavzusini o'tish jarayonida talabalarga nafaqat tish kasalliklarida va boshqa-da kasalliklarda dorivor o'simliklarning ahamiyati juda katta ekanligi haqida keng ma'lumotlar berdim.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Jamiyat va tabiat asosi, uni o'z faoliyati bilan rivojlantiruvchi va boshqaruvchisi inson ekanligini e'tiborga olib, uning hayot faoliyatini yaxshilash, e'zozlash – taraqqiyot yo'lidagi muhim omili bo'lib hisoblanadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan fuqarolarimizning hayot sharoitini yaxshilash, ularni turli ta'sirlardan saqlash, har qanday holatda ham ehtiyot etib, muhofaza etish asosiy ezgu maqsadimiz qilib olingan.

Shuning uchun, malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim mazmunini inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash g'oyasi bilan to'ldirib, talabalar ongiga singdirish va bu borada ta'lim tarbiya, targ'ibotning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish», «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2008 yil 3 sentyabrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlashga oid yo'riqnoma», O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 28 oktyabrdagi 318-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash institutning barcha bakalavrlar malakaviy bitiruv ishining «Hayot faoliyati xavfsizligi» faniga asoslangan holda, shu fandan mashg'ulot olib borgan o'qituvchi maslahati bilan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Shuning uchun bakalavriatura barcha ta'lim yo'nalishlari bitiruv malakaviy ishlarida (BMI) alohida «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limi bajarilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

BMI «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limi, BMI umumiy topshirig'ida ilmiy maslahatchi rahbarligida, yakka tartibdagi topshiriqlarga asosan bajariladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bo`lim ish rejasini BMI mavzusidan kelib chiqqan holda ilmiy rahbar va maslahatchi bilan kelishish;

- bo`limni yozish bo`yicha zarur bo`ladigan ma`lumotlarni to`plash.

BMI «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo`limini bajarishda talabalarni bitiruv oldi amaliyotini o`tishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu davrda talaba o`zi tanlagan korxona, tashkilot, laboratoriya va h.k. faoliyati, holati bo`yicha materiallarni yig`ib, qayta ishlab chiqadi va hisobotida ko`rsatishi mumkin.

Hayot faoliyati mehnat muhofazasining qonuniy asoslari

Hayot faoliyati xavfsizligi mehnat muhofazasining huquqiy, qonuniy asosini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O`zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va turli vazirliklarning ko`rsatmalari va buyruqlari tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (1992 yil 8 dekabr): Oliy Majlisining vakolatlariga O`zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e`lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to`xtatish to`g`risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi (78-modda).

Mahalliy hokimiyat organlarning Konstitutsiyamiz tomonidan belgilangan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotini va fuqarolarning xavfsizligini ta`minlash;

- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig`imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg`armalar hosil qilish;

- atrof muhitni muhofaza qilish (100-modda).

Konstitutsiyada eng avvalo inson huquqlarini himoya qilish ko`rsatilgan bo`lsa, shu bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham himoyalangan asosi berilgan.

Konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoyasiga qaratilgan. 36-moddada «Har bir shaxs qonunda ko`rsatilgan tartibda mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalash huquqiga egadir» deyilgan va uning davomida «Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o`tash tartibidan yoki qonunda ko`rsatilgan boshqa hollardan (harbiy xizmat chog`ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deyilgan.

Konstitutsiyaning 37-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to`lanadigan mehnat ta`tilining muddati qonun bilan belgilanadi» deb, fuqarolarning dam olish huquqini amalga oshirilishini ta`minlaydi. 38-moddada «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo`qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta`minot olish huquqiga ega, xuddi shuningdek pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo`yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo`lishi mumkin emas» deb fuqarolarimizning hayot xavfsizligi ta`minlangan.

39-moddada «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega» deb tibbiyot xizmati hech bir cheklanishlarsiz, turli-tuman tibbiyot xizmati korxonalari tashkil etilishi va jumladan malakali tibbiyot xodimlari o`z shaxsiy davolash muassasalariga ega bo`lishi, davolash sohasida raqobat vujudga kelishi bilan Respublikamizda yashovchilar malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyati ta`minlandi.

O`zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi mazmunida ishlab chiqarish korxonalari ma`muriyati mehnatkashlarga ishlab chiqarish bilan bog`langan har qanday shikastlanish yoki zararlanishni, shuningdek moddiy yo`qotishni qoplash majburiyatini oladi.

Xavfsiz ishlash sharoitini yaratish borasida yo`l qo`yilgan har qanday kamchilik yoki xavfsiz ishlash sharoitini tashkil qilmaslik natijasida ishchining baxtsiz hodisaga uchrashi sanoat korxonasining yoki rahbar xodimlarning aybi

hisoblanadi. Moddiy yo`qotishni qoplash miqdori va tartibi maxsus qoidalar asosida olib boriladi.

Yuqorida biz mehnat qonuni, kodeksi va ayrim me`yoriy hujjatlardan qonun, qoida va ko`rsatmalardan ayrimlarini ko`rib chiqdik. Shulardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O`zbekistonda fuqarolarning hayot faoliyati yetarli qonun va qoidalar bilan kafolatlangan.

Mehnat xavfsizligi tadbirlarini yaratish va ularning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi

Hayot faoliyati xavfsizligida mehnat muhofazasi, qonunda ko`rsatilganidek:

- mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog`ligi va xavfsizligini ta`minlash uchun yo`naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigienik, profilaktik tadbirlarni o`z ichiga qamrab olar ekan, demak barcha jabhalarda fuqarolarning mehnat qilish sharoiti talab darajasida yaratilishi lozim.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining metodologik asosining yana bir tomoni, bu mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zaharli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo`ladigan xavfli vaziyatlarni muntazam ravishda ilmiy tahlil qilib borishdir. Chunki, faqat tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo`lishi mumkin bo`lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarning barchasi o`zaro bog`langan, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko`rilib borilishi lozim.

Ishlab chiqarishda, tashkilotlarda har bir rahbar va muxandisning O`zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to`g`risida»gi Qonuniga amal qilish, ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini ish faoliyatida to`g`ri hal etishi, uning shu sohadagi bilim va malakasiga bog`liq. Hayot faoliyati xavfsizligi bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo`lgan mehnatni texnika

xavfsizligi hamda yong`inning oldini olish masalalari hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada, yalpi safarbarlik bilan tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini ko`tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg`ulotlarini o`tkazish, mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish, o`quv yurtlari o`qituvchilari, talabalari, xizmatchi va ishchilari o`rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaz qilish to`g`risida» Qonunning qabul qilinganligi maqsadga muvofiq bo`lib, bu sohadagi barcha chora-tadbirlar aynan qonun asosida talab etiladi.

3. Ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklarining tahlili

Sanoat korxonalarida xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong`in xavfsizligi qoida, norma va yo`riqnomalariga rioya qilmaslik jarohatlanishga, zaharlanishga va kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Inson tanasining teri yoki ayrim qismlariga tashqi mexanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta`siri natijasi jarohatlanish va shikastlanish deb tushuniladi.

Urinish natijasida lat yeyish, terining kesilishi, suyak sinishi va chiqishi, kuyish, sovuq urishi, elektr toki urishi va inson hayoti faoliyati buzilishiga olib keladigan boshqa cheklanishlar jarohatlanishga misol bo`ladi.

Jarohatlanishni va shikastlanishni baxtsiz hodisa deb ham yuritiladi va uch turga bo`lib qaraladi hamda baholanadi:

1. Ishlab chiqarishda, ish joyida jarohatlanish.
2. Ish bilan bog`langan, lekin ishlab chiqarish bilan bog`lanmagan.
3. Ishlab chiqarish va ish bilan bog`lanmagan jarohatlanish.

Birinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ma`muriyat tomonidan buyurilgan ishni bajarishi davomida, ish joyida, sexda, korxona maydonida, yuk ortish va tushirish yoki yuklarni boshqa joyga ko`chirish vaqtida olgan jarohati kiradi.

Ikkinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ishxona transport vositalarida, ishga borib kelish vaqtida, komandirovka vaqtida, korxona ma'muriyati topshirig'i bilan boshqa joylarda ishlarni bajarganda olgan jarohati kiradi.

Uchinchi turdagi jarohatlanishga maishiy holatlarda, mast bo'lish natijasida, davlat mulkini o'g'irlash vaqtida, uy sharoitida vujudga kelgan jarohatlanishlar kiradi.

Xavfsizlikni ta'minlashda psixologiya, zaharli moddalar va kasb kasalliklarini ogohlantirish

Xalqaro tajriba, izlanishlarning ko'rsatishicha maishiy ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarning 60-90%i zarar ko'rgan kishilarning mexnatini muhofaza qilishda psixologik bilimlarni tatbiq qilishni ifodalaydi. Bu yerda mexnat faoliyati jarayonida ko'rinadigan psixologik holatlar turlari to'liq tekshiriladi, psixologik jarayonlar, psixik xususiyatlar ko'rib chiqiladi.

Insonning psixik faoliyatida uchta asosiy guruh: - psixik jarayonlar, xossalar, holatlar farqlanadi.

Psixik jarayonlar psixik faoliyatning asosini tashkil qiladi. Busiz bilimlarni jamlash, hayotiy tajribaga ega bo'lish mumkin emas. Psixik jarayonlar bilish, sezish, his-tuyg'u, qabul qilish, iroda, xotira va boshqalarga farqlanadi.

Psixik xossalar shaxsning o'ziga xos xususiyatini, fazilatini (yo'nalishi, характери, temperamenti) ifodalaydi. Shaxsning sifatlari (xossalari) ichida zukkolik, zakovatlilik, his-tuyg'u, iroda, odob-ahloq, mehnat ajralib turadi va u o'zgarmas hamda doimiydir.

Psixik holatlar xilma-xilligi, vaqtincha характери bilan farqlanadi va psixik faoliyatning xususiyatlarini aniqlaydi, psixik jarayonlarga foydali yoki foydasiz bog'lanishi mumkin.

Mehnat psixologiyasi vazifalari va xavfsizlik muammolaridan kelib chiqib holatlarni ishlab chiqarish va maxsus psixik holatlarga ajratish maqsadga

muvofigdir. Bu ishlab chiqarishdagi shikastlanish, avariyaning oldini olish choralari tashkil etishda muhim o`rin tutadi.

Insonning qobiliyati, samarali mehnat faoliyati uning psixik (ruhiy) kuchlanishi darajasiga bog`liq. Psixik kuchlanish insonning mehnatiga ma`lum daraja – chegaragacha ijobiy ta`sir etadi. Faollikni kritik nuqtadan yuqoriga ko`tarish ish qobiliyatini yo`qotishgacha olib kelishi mumkin.

Psixik kuchlanishning chegaradan yuqori shaklida insonning shaxsiy xususiyatlari pasayadi, harakat kordinati o`zgaradi, xulqi samarasiz holatga o`tadi yoki hayot faoliyatida boshqa salbiy o`zgarishlar namoyon bo`ladi.

Chegaradan yuqori psixik kuchlanishni xususiyatiga qarab tormozlovchi (to`xtatuvchi), qo`zg`atuvchi turlarga ajratish mumkin.

Tormozlash xili inson harakatining pasayishiga va cheklanishiga olib kelishi bilan ifodalanadi. Kasb egasi vazifani avvalgidek shijoat bilan bajarishga qodir bo`lmaydi, javob berish xususiyati va tezligi pasayadi. Xotiralanish, fikrlash jarayoni sekinlashadi, yomonlashadi va shu kabi boshqa salbiy omillar kuzatiladi.

Qo`zg`atuvchi xilida esa insonda faollikning pasayishi, ko`p gapirish (sergaplik), ovozning titrashi kuzatiladi. Natijada, ya`ni psixik kuchlanishning yuqori shaklida odamlarda murakkab sharoitlarda noto`g`ri harakatlanish va xatolarga yo`l qo`yish, toliqish sodir bo`ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib inson psixik holatining nazoratiga katta e`tibor beriladi.

Insonning psixik holatiga ta`sir etadigan omillar – umidsizlanish, kayfiyatning buzilishi, qo`pollik alomatlari, yiqilib tushish, toliqish kabilar bo`lmasligi uchun tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu jumladan, insonning salomatligiga, ish holatiga, psixologik faoliyatiga ijobiy ta`sir etadigan psixofarmakologik vositalar ishlab chiqilgan va ular tavsiya etilgan taqdirda qo`llaniladi.

Yengil stimulyatorlar (choy, kofe) ni qo'llash insonning ish qobiliyatini qisqa vaqtga oshiradi, uyqusini qochiradi. Ayniqsa, aktiv stimulyator (pervitin, fenamin) larni iste'mol qilish bilan harakatchanlik, sezish qobiliyati pasayadi.

Trankvillizatorlar (seduken, elenium va h.k.) ichilsa, inson bir oz tinchlanadi, lekin nevroz kasalligi kelib chiqadi, uyqu elitadi, faollik, psixik holat pasayadi.

Insoning ish qobiliyatiga, psixik holtiga jiddiy ta'sir etadigan alkogol ichimliklarni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi.

Xullas, maishiy va ishlab chiqarish sharoiti asosida insoning psixik holati barqaror bo'lishi uchun chora-tadbirlar ko'rish, takomillashgan nazorat sulini uyushtirish asosida vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Odam tanasiga o'tib, uning to'qimalariga kimyoviy, fizik-kimyoviy ta'sir qiladigan, mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladigan moddalar zararli va zaharli moddalar deb ataladi. Ular kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqariladi va qo'llaniladi.

Sanoatda zaharli moddalar odam tanasiga nafas olish yo'li yoki teri orqali, ovqat yeyish vaqtida, ifloslangan suvni iste'mol qilinganda o'tadi va saqlanuvchi zaharlanishga olib keladi.

Kuchli zaharlanish ko'proq miqdordagi zararli moddalarni to'satdan tanaga o'tishi bilan sodir bo'ladi. Shuningdek, zararli moddalarni tanaga oz-ozdan o'tishi va yig'ilishi natijasida kasb kasalliklari kelib chiqadi.

Zararli va zaharli moddalarning ta'siri ularning tarkibiga, tuzilishiga, fizik – kimyoviy xususiyatiga, xossalriga, miqdordagi, tanaga o'tish yo'llariga, holatiga, uchuvchanligiga va suvda, yog'da eruvchanligiga bog'liq.

Kimyo sanoati korxonalarida olinadigan, ishlatiladigan moddalar va mahsulotlarning ko'pchiligi, masalan, ammiak, gazlar, benzol, benzin, kerosin, karbon vodorodlar, spirtlar, efirlar, kislotalar, ishqorlar va boshqalar zaharli hisoblanadi.

Neft mahsulotlari tarkibida past molekulali karbon vodorodlar molekulyar og'irligi oshishi bilan ularning zaharlash qobiliyati ortadi. Masalan, butanning ta'siri etandan, etilen esa etandan, atsetilen esa etilendan kuchlidir. Normal tuzilishdagi moddalarga nisbatan tarmoqlangan, zanjirli birikmalarning ta'siri kamroq bo'ladi.

Moddalarning uchuvchanligi kamayib borishi bilan dekan ($C_{10}H_{22}$) dan boshlab ularning ta'sirchanligi ham kamayadi. Karbon vodorodlar tarkibiga galogenlar kiritish, ularning zaharlash qobiliyatini oshiradi, aksincha, giroksil guruhining kiritilishi ta'sirchanlik xususiyatini kamaytiradi.

Karbon vodorodlar molekulasidagi vodorodni nitro (NO_2), amino (NH_2) guruhlarga almashtirish ularning zaharlash xususiyatini o'zgartiradi.

Moddalarning valentligi ortib borishi bilan ularning ta'sirchanligi ham o'zgaradi. Masalan, 6 valentli xrom 3 valentlikdan, marganes oksidi marganes sulfatdan, temir oksidi temir sulfatdan kuchlidir.

Kimyoviy moddalar vakillarining gomologik qatorini o'rganish natijalari ko'pgina o'xshash moddalar haqida fikr yuritishda, kasallikning va zaharlanishning oldini olishda ma'lum darajada yordam beradi. Zahar moddalarni olishda ma'lum darajada yordam beradi. Zahar moddalarni suvda, tanadagi suyuqliklarda eruvchanligining oshishi bilan ularning ta'sirchanligi ham ortib boradi.

Masalan, suvda eruvchan oq mishyak (As_2O_3) kuchli zahar, kam eruvchani (As_2C_3) zaharsiz, eruvchan bariy xloridi ($BaCl_2$) zaharli, bariy sulfat ($BaCO_4$) esa zaharsiz va h.k.

Zaharli moddalar odam tanasi va ayrim to'qimalariga ko'rsatadigan ta'sirga qarab shartli ravishda to'qqiz guruhga bo'lingan:

1. Asab zaharlariga benzin, kerosin, yog' spirtlari, karbon vodorolar, metanol, anilin, vodorod sulfidi, dioksan, ammiak, nikotin, kofein, tetraetil qo'rg'oshin, fosforli organik birikmalar va bshqalar misol bo'ladi. Ular asosan markaziy asab sistemasini shikastlaydi.

2. Jigar zaharlariga tarkibiga xlor, brom, ftor, yod bo'lgan birikmalar misol bo'ladi. Ular jigar to'qimasi faoliyatining buzilishiga, jigarning qattiq yallig'lanishiga olib keladi.

3. Qon zaharlariga karbon angidridi, amino – nitrobrikmalarning aromatik qatori va hosilalari, fenal gidrazin, mishyak, benzol, toluol, ksilol va boshqalar misol bo'ladi. Ular qon tarkibining buzilishiga, karboksil va metgemogloblin (SoNb, MtHb) hosil bo'lishiga, to'qimada kislorodning kamayib ketishiga, hatto o'limga ham olib keladi.

4. Ferment zaharlariga kiruvchi simob, mishyak, sian birikmalari, fosforli va organik birikmalar (tiofos, metafos) tanani biologik katalizatorlari hisoblanadigan fermentlarning (Sn) guruhlari bilan bog'lanib, ular faoliyatining buzilishiga, zaharlanishiga olib keladi.

5. Qitiqllovchi, kuydiruvchi zaharlar yuqori va quyi nafas olish yo'llarini shikastlaydi, kasalanishga olib keladi. Bunday zaharlarga xlor, ammiak, azot oksidi, fenal, kislotalar, ishqorlar misol bo'ladi.

6. Allergen zaharlari nikel, berilliy birikmalari, nitroxlорbenzol, piridin birikmalari, ursol va boshqalar tananing reaksiya qobiliyatini o'zgartiradi, terining yallig'lanishiga, nafas olish yo'llarining torayishiga va boshqa kasalliklarga olib keladi.

7. Konserogen zaharlar hisoblangan toshko'mir smolasi, amino va izobirikmalar, xlorbenzidin, ko'mir, qorakuya va boshqalar tanada shish, rak kasalligini keltirib chiqaradi.

8. Mutagen zaharlarga etilenimin, etilen oksidi, xlorli karbonvodorodlar, qo'rg'oshin va simob birikmalari misol bo'lib, ular odam va hayvonlar jinsiy organlariga qattiq ta'sir etadi.

9. Emriotron zaharlar (tolid amid va boshqalar) odam va hayvonlarning tug'ilishiga salbiy ta'sir etadi. Naslini yo'q qiladi.

Kimyoviy moddalarni dezinfeksiyalovchi eritma va vositalar

Dezinfeksiyalovchi vosita nomi	Ishlatish usuli	Yuqumsizlantiriladigan ob'ektlar
Xlorli ohakning tindirilgan 0,2-5% li eritmalari	Sepish, chayish	Turar-joy va xizmat xonalari, mebel
Xlorli ohakning tindirilgan 10-20% li eritmalari	Sepish, chayish	Binolarning tashqi yuzalari, hojatxonalar, turli joylar
0,2-1% li xloramin eritmasi	Sepish, artish, bo'ktirish (ho'llash)	Turar-joy va xizmat xonalari, mebel, idish – tovoq ich – kiyim va o'rin ko'rpa oqliklari

Kalsiy gipoxlorid gidroksid tuzining (DTSGK) 1-3% li eritmasi	Artish, sepish	Turar-joy xonalari, jamoat joylarida foydalanadigan anjomlar, yuk vagonlari.
3% li vodorod peroksid eritmasi	Artish	Xonalarning devorlari, pollari, badan terisi
Etilen oksid (metall ballonlarda)	500 ml/m ³ konsentratsiyagacha purkash	Berk binolar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). I kitob. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti , 1994. -304 b.
2. Gammerman A.F. Oprelitel rastitelnogo lekarstvennogo sirya. –Leningrad, Medgiz. 1952. -151 s.
3. Davletmuratov S., Uteniyazov K. Lekarstvennie rasteniya Karakalpakii, primenyaemie v nauchnoy meditsine. –Nukus, «Karakalpakistan». 1990. -96 s.
4. Davletmuratov S., Uteniyazov K., Xalmuratov P. Xaliq meditsinasinda qollanilatuqin Qaraqalpaqstanniq mædeniy h m jabayi  simlikleri. – N kis, «Bilim». 1992. -132 bet.
5. Davletmuratov S., Uteniyazov K., Xalmuratov P. Lekarstvennie rasteniya Karakalpakii, primenyaemie v nauchnoy meditsine (izdanie vtoroe, ispravlennoe i dopolnennoe). –Nukus, «Karakalpakistan». 2003. -100 s.
6. Dadaev X. Dorisiz davolash usullari. –Toshkent, «Abu Ali ibn Sino». 2001. -40 bet.
7. Erejepov S. Osnovnie dikorastushie lekarstvennoe rastenie Karakalpakii. – Nukus, «Karakalpakistan». 1971. -125 s.
8. Zikiryoiev A. Biologiyadan ruscha o`zbekcha izohli lug`at. –Toshkent, «Qomuslar bosh tahririyati». 1993. -163 bet.
9. Korovina O.N., Baxiev A., Tajetdinov M.T., Saribaev B. Illyustrirovanniy opredelitel visshix rasteniy Karakalpakii i Xorezma. –Tashkent, «Fan». T. I. 1982. -216 s. T. II. 1983. -216 s.
10. Lekarstvennie rasteniya. Vipusk II. –Moskva, «Izobrazitelnoe iskusstvo». 1977. 32 otkritki.
11. Mavlonqulova Z.I., Xolmatov X.X., Maxsumov M.N. Qon oqishini to`xtatuvchi dorivor o`simliklar. –Toshkent, Abu Ali ibn Sino. 1993. -24 b.

- 12.Martinov Yu.F. Texnologiya proizvodstva lekarstvennogo rastitelnogo sirya. –Moskva, Meditsina. 1979. -216 s.
- 13.Turmanina V.I. Rasteniya rasskazivayut. –Moskva, Misl. 1987. -156 s.
- 14.Ubasheev I.O., Nazarov-Rigdilon V.E., Batorova S.M., Lonshakova K.S. Rani i ix lechenie v tibetskoy meditsine. –Novosibirsk, Nauka. 1990. -192 s.
- 15.Xolmatov X.X., Qosimov A.I. Dorivor o`simliklar. –Toshkent, Abu Ali ibn Sino. 1994. -368 b.
- 16.Xolmatov X.X., Qosimov A. Ruscha-lotinja-o`zbekcha dorivor o`simliklar lug`ati. Toshkent. «Abu Ali ibn Sino». 1992. 200 bet.
- 17.Xudoyberdiev G.E., Nabiev M.N., Sobirov Yu. Shifobaxsh o`simliklarning stomotologiyada qo`llanilishi. –Toshkent, Abu Ali ibn Sino. 1995. -128 b.
- 18.Qalantarov D.E., Lavochnik M.I. Tishlarni asrash san`ati. –Toshkent, Meditsina. 1985. – 96 b.
- 19.Hojimatov Q., va boshq. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham. Toshkent, «O`zbekiston». 1995. 144 bet
20. X.X.Xolmatov, O`.A.Axmedov Farmakognoziya Toshkent 2006 y
- 21.Muhammad Muxtorov Ming dardga ming davo. Qarshi «Nasaf». 2009. 15 et.
- 22.Xoliqov K. O`zbekiston Janubidagi dorivor o`simliklar. T, “Mehnat”, 1992.